

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**O‘ZBEK ROMANCHILIGIDA FOLKLOR AN‘ANALARI VA  
MIFOPOETIK TALQIN**  
*mavzusidagi*

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: «O‘zbek filologiyasi» bakalavr  
ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchisi  
Roximboyeva Xulkaroy\_\_\_\_\_

ILMIY RAHBAR:  
f.f.n., dots. Abdullayev H.\_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.  
\_\_\_\_-sonli bayonnomasi «\_\_\_\_» may 2014yil

**Nukus- 2014**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOIYAGA TAVSIYA  
QILINADI:**

Fakultet dekani:	dots. Abdullaev H.
Kafedra mudiri:	dots. Bobojonov F.
Ilmiy rahbar:	dots. Abdullaev H.

**DAK Q A R O R I:**

**ROXIMBOYEVA XULKAROY**ning «**O‘zbek romanchiligida folklor an’analari va mifopoetik talqin**» mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan «                      » ball qo‘yilsin.

**DAK kotibi:**

**Qlichev N.**

«\_\_\_\_\_»\_\_\_\_\_ 2014 yil

**Mavzu: O‘ZBEK ROMANCHILIGIDA FOL’KLOR AN’ANALARI  
VA MIFOPOETIK TALQIN**

**Kirish**

**I Bob. Fol’klorizmlarning roman badiiy to‘qimasidagi o‘rni**

**II Bob. O‘zbek romanchiligida milliy qadriyatlar talqini**

**Umumiy xulosalar**

**Foydalanilgan adabiyotlar**

## **I Bob. FOL'KLORIZMLARNING ROMAN BADIY TO'QIMASIDAGI O'RNI**

XX asr o'zbek adabiyotida milliy ruh va qahramon talqiniga bag'ishlangan o'nlab romanlar yaratilgan bo'lib, ularning aksariyatida milliy qadriyatlar hamda xalq og'zaki badiiy ijodi an'analari– folklorizmlar o'z aksini topgan. Zero, milliy ruh muayyan milliy etnomadaniy an'analarni muhitida shakllanadi, xalqning urf-odatlarini, marosimlarini va og'zaki badiiy ijodi esa ana shu milliy muhitni tashkil etuvchi asosiy komponentlar sanaladi<sup>1</sup>. Zero, milliy ruhning badiiy-estetik talqini xususida so'z yuritish hamda muayyan ilmiy xulosalarga kelish uchun millatning o'ziga xos tabiati, milliy xarakterning shakllanishiga asos bo'lgan ma'naviy qadriyatlar va an'analarning mustaqillik davri o'zbek romanchiligida qay darajada aks etganligini o'rganish zarurdir. Chunki milliy qadriyatlar va an'analarni badiiy idrok etish orqali badiiy asarlar yaratish, qolaversa, urf-odatlar va marosimlarda o'z ifodasini topgan “milliy o'zlik”ni yozma nasrga singdirish bugungi adabiy jarayonning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Yozma adabiyotda folklorizmlarning qo'llanilishi juda qadimdan badiiy tamoyilga aylangan an'anadir. Folklor hamma davrlarda ham yozma adabiyotning mazmun – mundarijasini boyituvchi, uning poetik imkoniyatlarini muttasil takomillashtirib boruvchi badiiy - estetik asos vazifasini o'tab kelgan. Yozma adabiyotning shakllanishi va taraqqiy etishida og'zaki ijod janrlari muhim badiiy zamin sifatida faol ishtirok etadi. Har bir davr adabiyoti milliy qadriyatlarga o'z badiiy-estetik ehtiyojlari va badiiy niyat talablari darajasidan kelib chiqqan holda munosabatda bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, folklor va yozma adabiyot munosabati qadimgi davrlardan to bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan eng izchil badiiy-estetik an'analardan biri sifatida faol namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodi o'rtasidagi o'zaro aloqalarning o'ziga xos jihatlari ularning badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o'rni, badiiy matndagi folklorizmning manbalari va badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Этнос ва маданият: анъанавийлик ва замонавийлик. – Тошкент: Фан, 2010.

vosita sifatidagi ahamiyatidan kelib chiqib baholanadi. Yozma nasrda qo‘llanilgan folklorizmlarning badiiy asar kompozitsiyasi va syujet qurilishidagi poetik o‘rnini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Bu muammo mumtoz adabiyot misolida N.Mallaev, M.Hakimov, J.Qobulniyozov, T.Xo‘jaev<sup>2</sup> kabi olimlarning Alisher Navoiy, Bobur, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy kabi shoirlar ijodidagi folklorizmlar tadqiqiga doir asarlarida o‘rganilgan. B.Sarimsoqov va I.YOrmatov folklorizmlar tavsifi, tasnifi, manbalari va tipologiyasi masalalarini tadqiq etishgan<sup>3</sup>. G‘.Mo‘minov, G‘.Jalolov, A.Ergashev, D.Quvvatova, SH.Ishniyozova, M.Imomkarimova, M.Pirnazarovalar<sup>4</sup> esa XX asr o‘zbek adabiyoti asarlarining tahlili misolida folklorizmlarning badiiy matn strukturasi o‘rnini tadqiq etishgan. Mifologiyaning yozma adabiyotga ta’siri masalasi esa o‘zbek adabiyoti materiallari asosida M.Saidov, G‘.Akramov, M.Jo‘raev, T.Xo‘jaev, M.Narziqulovalar<sup>5</sup> tomonidan o‘rganilgan.

---

<sup>2</sup> Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Фан, 1974. – 28 б; Ҳақимов М. Ўзбек совет ёзувчиларининг асарларида мақол, матал ва афоризмлар: Филол. фанлари д-ри... дис. – Тошкент, 1965. – 494 б; Қобулниёзов Ж. Ўзбек совет адабиётининг шаклланиш даврида ўзбек фольклори (эпик жанрлар бўйича): Филол. фанлари д-ри ... дис. – Тошкент: 1957. – 377 б.; Хўжаев Т. ХУ аср 1 ярми ўзбек адабиёти ва фольклор: Филол. фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 1996. – 131 б.

<sup>3</sup> Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981.

<sup>4</sup> Саримсоқов Б. Фольклор ва ёзма адабиёт муносабатларига доир изланишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. – №5. – Б.85-88; Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982. – №2. – Б. 59-61; Жалолов Ғ. Ҳамза ва халқ оғзаки ижоди (“Майсаранинг иши” комедияси аспекти): Филол.фанлари д-ри... дис. – Тошкент, 1961. – 352 б.; Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Филол. фанлари д-ри... дис. – Тошкент, 1994. – 287 б.; Яна ўша. Ўзбек совет адабиёти тараққиётида фольклорнинг роли. – Тошкент: Фан, 1985. – 78 б.; Қувватова Д. Ўзбек миллий бадий фонтастикасида фольклор мотивлари. Филол.фанлари номзоди... дис. – Тошкент, 1997; Ишниёзова Ш.А. Ҳозирги замон ўзбек ва қирғиз насрида афсона ва ривоятларнинг қиёсий-типологик таҳлили: Филол. фанлари номзоди... дис. – Тошкент, 1996; Имомкаримова М. М. Ўткир Ҳошимов асарларида миллий қадриятлар талқини: Филол. фанлари номзоди... дис. – Тошкент, 2004; Пирназарова М. Ҳозирги ўзбек романларида услубий изланишлар: Филол. фанлари номзоди... дис. – Тошкент, 2006. Эргашев А. Ривоят ва унинг бадий асар композицион структурасидаги ўрни: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. – Самарқанд, 1993.

<sup>5</sup> Саидов М. Туркий халқлар мифологиясининг ёзма адабиётга таъсири масаласига доир // Адабиёт кўзгуси. – №2. – Тошкент: 1996. – Б. 141-145; Акрамов Ғ. Миф ва ёзма адабиёт муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – №2. – Б. 60-66; – №4. – Б. 70-74; – №5. – Б. 56-58; – №6. – Б. 53-57; Жўраев М. Мифларнинг ёзма адабиётга муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – № 6; Хўжаев Т.Р. Мифик образ ва ёзма адабиёт // Адабий мерос. – 1991. – №2. –Б. 63-68; Нарзиқулова М. «Сабъаи сайёр» достонида фольклоризмлар ва ўзбек фольклорида Баҳром сюжетининг талқини: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Тошкент, 2005; Жўраев М., Нарзиқулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006; Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 149 б.; Эшонкул Ж. Миф ва роман // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1997. – 25 апрель.

Biz, istiqloldan soʻnggi yillarda yaratilgan oʻzbek romanlarida qoʻllanilgan mifologizmlar, folklorizmlar va milliy qadriyatlar tahlili orqali milliy ruh va qahramon talqini qay darajada aks ettirilganligini oʻrganishga harakat qilamiz.

Mifologik qarashlar qadimgi odamlarning ibtidoiy tushunchalari mahsuli boʻlib, inson tafakkurining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Badiiy asarda tasvirlangan qahramon xarakteriga xos tabiiylikni saqlab qolgan holda bugunning dardini, hozirgi zamon kishisi shuuridagi kechinmalarni ramziy – metaforik usulda talqin qilish uchun har bir adib avloddan-avlodga oʻtib kelayotgan eʼtiqod va ishonchlarga murojaat etib, ularni badiiy mahorat bilan asarga singdirib yuboradi. Mifologik qarashlarni badiiy asarga singdirishda har bir adib oʻziga xos usulni qoʻllaydiki, natijada yozma nasrda mifologizmlarning turli tiplari yuzaga kelgan. Chunki har bir millatning oʻzi qadrlaydigan madaniyati, oʻziga xos oʻtmishi, madaniy va maʼnaviy qadriyatlari, milliy urf-odatlar va yashash tarzi, milliy dunyoqarashi va marosimlari mavjud. Shu kabi har bir davr adabiyotining ham oʻziga xos xususiyatlarini koʻrsatuvchi, xalq hayotini haqqoniy tasvirlashga xizmat qiladigan, milliy kolorit va ruhiyatni aks ettiradigan badiiylik mezonlari borki, bular bevosita yozma nasr va ogʻzaki ijodning oʻzaro izchil munosabati natijasida goʻzal badiiyat namunalari yozma adabiyotga kiritilishiga asos boʻlgan.

Maʼlumki, jahon adabiyotida folklor anʼanalari, jumladan, afsonalar asosiga qurilgan asarlar talaygina. Masalan, Gomerning “Odisseya” dostoni yunon afsonalari va eposi asosida yaratilgan buyuk asar ekanligi hammaga ayon. Rus adabiyotida M.Bulgakovning “Usta va Margarita” romani ham mohiyatan folklor anʼanalari asosida yaratilgan. Ayni xususiyat oʻzbek bolalar adabiyotida koʻproq namoyon boʻlganini taʼkidlash joiz. Shu jihatdan X.Toʻxtaboevning “Sariq devni minib”, “SHirin qovunlar mamlakatida” kabi romanlari xarakterlidir. Biroq, ayni holat, yaʼni syujet asosi folklor manbalari zamiriga tayanishi anʼanasi toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzbek romanlariga koʻchmagan boʻlsa-da, Asqad Muxtorning “Chinor”, Odil YOqubovning “Koʻhna dunyo” asarlarining badiiy qurilishida folklorizmlarga keng oʻrin berilgan. Folklor anʼalaridan bevosita foydalanish hodisasini bugungi

kun nasrida Omon Muxtor, Xurshid Do'stmuhammad, Tog'ay Murod, Asad Dilmurod, Ulug'bek Hamdam kabi ijodkorlarning asarlarida uchratishimiz mumkin.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi an'alariga murojaat etish yozuvchining o'ziga xos badiiy qiyofasini, asarning g'oyaviy-badiiy butunligi, uslubiy rang-barangligi va syujetning originalligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ramziy-timsoliy tasvirlarning bo'yoqdorligini oshirishda, milliy qadriyatlar va an'analarga suyanib ish ko'rgan yozuvchi o'z badiiy niyatining ro'yobga chiqishiga erishadi. U asarning xalqchilligini va milliyligini ta'minlabgina qolmay, uning kompozitson qurilishi, badiiy tasvirning yangiligi va qahramonlar xarakterining to'laqonli chiqishini ham ta'minlaydigan badiiy asosga ega bo'ladi. Zero, "o'zbek adabiyotida roman janrining tug'ilishi to'rt muhim manbaga tayanadi, ya'ni, a) voqelik – hayotning o'zi; b) folklor, birinchi galda epik dostonlar; v) o'zbek klassik adabiyoti; g) rus va jahon ilg'or romanchiligi"<sup>6</sup>, – deb yozgan edi professor S.Mirvaliev. Darhaqiqat, olim to'g'ri ta'kidlaganidek, folklorizm nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon romanchiligida ham muhim o'rin tutadi. Bugungi kun romanchiligida milliy qadriyatlar darajasiga chiqqan e'tiqod va tuyg'ulardan tashqari folklorning turli janrga mansub ko'rinishlarini ham kuzatish mumkin. Shunga ko'ra, hozirgi o'zbek nasrida folklorizmlarni quyidagicha tasnifladik:

1) xalqimiz turmush tarzidan mustahkam o'rin olgan turli xil marosimlar, rasm-rusumlar, milliy an'analar va urf-odatlarining yozma nasrdagi ifodasi;

2) qahramon taqdiri va xarakterining to'laqonli tasvirini yaratish maqsadida badiiy asar matniga olib kirilgan folklorga xos poetik obrazlar, badiiy tasvir vositalari hamda kiritma epizodlar talqini;

3) roman kompozitsiyasi va syujet qurilishining o'ziga xosligini ta'minlash maqsadida badiiy asar to'qimasiga singdirib yuborilgan folklor syujetlari va an'anaviy epik motivlar;

4) qahramon ruhiyatini tahlil qilish va uning milliy-ma'naviy olamini shakllantirish maqsadida badiiy tasvir qatlamlariga singdirilgan mifologik

---

<sup>6</sup> Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Б. 73

tasavvurlar, turli xil xalq qarashlari va adib badiiy maqsadi bilan uyg'un ishonch-e'tiqodlar;

5) voqelikni badiiy idrok qilish va asar syujet-kompozitsion qurilishini shakllantirish jarayonida badiiy matnga singdirilgan mifologizmlar.

Yozma nasrda folklor an'analaridan ijodiy foydalanish ijodkordan katta mahorat talab qiladi. Eng avvalo, folklor namunalari o'z asarlarida mahorat bilan qo'llash, shuningdek, shu orqali kitobxonga ma'naviy ta'sir etish bilan birga asarning o'qimishlilikini ta'minlab turishni taqozo etadi. Biroq, ba'zi bir yozuvchilar ijodida folklorizmlarning noo'rin qo'llanishi natijasida asarning juda g'aliz chiqishi, ya'ni voqelik va mifologik tasvir unsurlari alohida-alohida yo'nalishni hosil qilib bir-biriga yopishmay qolgan holatlari ham kuzatiladi. Odatda bunda kitobxonning tishiga tegadigan ortiqcha jumlar, mantiqan tugallanmay qolgan fikrlar, so'z o'yinlaridagina iborat asarlar paydo bo'ladi. Demak, folklorizmlar tabiatini bilmaslik adabiyot olamida nafaqat bo'sh asarlar yaratilishiga, balki kitobxonning ma'naviy saviyasiga ham salbiy ta'sir qilib, uning badiiy didi o'tmaslashib qolishiga ham olib keladi. Shu jihatdan o'zbek nasrida, xususan, romanlarimiz tahlili misolida ijodkorning folklor an'analaridan foydalanish mahoratini kuzatish folklorizmlarning yozma nasr poetik qurilishidagi o'rni belgilashga doir yangi nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Omon Muxtor asarlarida folklorizmning rang-barang ko'rinishlarini uchratish mumkin. Adibning "Aflotun" romanida tasvirlangan barcha voqealar inson hayotining mohiyati haqida o'ylashga, fikr yuritishga, mushohada qilishga undaydigan badiiy-falsafiy haqiqatlar, aniqrog'i, hayotning mohiyatini badiiy tahlil qilish asnosida yozuvchi tafakkurida tug'ilgan o'y-kechinmalar mahsulidir. Yozuvchi xalq og'zaki ijodining an'analaridan ta'sirlanib, "Aflotun" romaniga olib kirgan "quduq" detali asarning badiiy jihatdan to'laqonli chiqishini ta'minlagan. Ma'lumki, epik qahramonning quduqqa tushish motivi xalq ertaklarida, shuningdek, musulmon Sharqida keng tarqalgan Yusuf qissasida bayon etilgan. Shu bois, bu motiv asar qahramoni hayotidagi sirli voqealar yechimini izlashda kitobxonga yordam beradi va milliy ruhiyat mohiyatini anglashda o'ziga xos kalit



vazifasini o‘taydi. Adib o‘z qahramonini quduq tubidagi darcha orqali o‘zga olamga olib o‘tish uchun yer osti dunyosi to‘g‘risidagi an’anaviy mifologik motivlardan biri – quduqqa tushish motividan foydalangan. “Xalqimiz yer osti olamiga go‘r, quduq, yoriq-teshik yoki g‘or orqali o‘tish mumkin deb o‘ylagan”, – deb yozadi M.Jo‘raev<sup>7</sup>. Folklorshunos U.Sattorovning qayd etishicha, “Mifologiyada quduq er osti olamiga o‘tish vositasi deb talqin qilingani bois, quduq suvi bilan yer ostidagi obi hayot o‘rtasida aloqadorlik, ramziy bog‘lanish borligi haqidagi qarashlar kelib chiqqan”<sup>8</sup>.

Qahramonning quduqqa tushishi va u erda g‘ayrioddiy personajlar bilan muloqotda bo‘lishi o‘zbek folklori epik janrlari – ertak, afsona va miflarning an’anaviy motivlaridan biri sanaladi. Masalan, "Abdulaziz" ertagida tasvirlanishicha, sahroda borayotgan karvon bir quduq oldida to‘xtab, tuyalarni sug‘ormoqchi bo‘lishadi. Bir kishini belidan boylab quduqqa tushiradilar, ammo suvdan darak bo‘lavermagach, arqonni tortishsa, haligi odamning kallasi kesilgan ekan. Kimni tushirishmasin, shu hol takrorlanaveribdi. Navbat Abdulazizga yetganida u karvonboshiga: "Meni oyog‘imdan bog‘lab, boshim bilan tushiringlar", – deb iltimos qilibdi. Ular Abdulazizni aytganiday qilib quduqqa tushiribdi. Abdulaziz quduqqa tushib, ko‘zini ochib qarasa, biri oq, biri qora ikkita dev o‘tiribdi. Shu ikkita dev quduqqa tushgan odamlarning boshini olib, hech kimga suv bermas ekan. Abdulaziz oq dev bilan qora devning savoliga to‘g‘ri javob bergach, ular quduq tubidan ketishibdi va yigit karvonga yetarlicha suv chiqarib beribdi<sup>9</sup>. Ko‘rinadiki, bu ertakda epik qahramonning quduqqa boshi bilan tushishi uning yer osti dunyosiga qilgan safari sifatida tasvirlangan.

Darhaqiqat, yer osti mamlakati to‘g‘risida turli xil rivoyat va afsonalar to‘qilgan bo‘lib, xalq ishonchlariga ko‘ra, osmon –maloikalarining makoni; yer osti esa marhumlar mulki, deb tushunilgan. Shu bois, Omon Muxtor ham o‘z badiiy niyatini amalga oshirish maqsadida mana shunday mifologik tasavvurlarga

---

<sup>7</sup> Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. – Тошкент: Фан, 1995. – Б.23.

<sup>8</sup> Сатторов У. Ўзбек халқ топонимик ривоятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 1999. – Б.82.

<sup>9</sup> Чалпак ёққан кун. Эртаклар. – Тошкент: Юлдузча, 1987. – Б.119-120.

suyanganligi bois, Usmonni yangi sarguzashtlar olamiga olib kirish uchun uni quduq tubiga tushiradi.

Bizningcha, asarda Usmon bilan quduq tubida uchrashgan kishilar ajdodlar ruhining poetik timsollari bo'lib, shu o'rinda adib nima uchun quduq tasvirini berdi, degan savol tug'iladi. Buning sababini ham xalqning mifologik tasavvurlaridan izlash kerakka o'xshaydi. Chunki xalq qarashlariga ko'ra, "quduq" detali zamin bilan yer ostini bog'lab turadigan ramziy vosita, ya'ni ikki olamni bir-biriga bog'lovchi yo'l timsoli, deb tasavvur qilinadi. "O'zga olam" esa, ko'pincha, yer ostida joylashgan deb qaraladi. Xalq og'zaki ijodida, xususan, sehrli ertaklarning qahramonlari ko'pincha "o'zga olam"ga quduq yoki g'or orqali o'tishlari tasvirlangan. Shunday mifologik qarashlarga asoslangan adib ajdodlar ruhining ramziy ifodasi vazifasini bajaruvchi personajlarni quduq tubidagi "o'zga olam"ga joylashtiradi va asar qahramoni harakat qiladigan badiiy makonni o'sha joydan tanlaydi. Bundan tashqari, quduq tubi tasviriga yozuvchi chuqur falsafiy mohiyat baxsh etgan. Adib idrokiga ko'ra, inson o'limidan so'ng jisman yer ostini makon qilsa-da, biroq uning ruhi yashashda davom etadi. Ruh uchun bizning tushunchamizdagi makon va zamon mezonlari yo'q, shu bois, ular zamoniy va makoniy chegaralarni bilmay harakatlanadilar. Asarda quduq tubidagi insonlar er ustidagi odamlardan, ularning qiladigan ishlaridan boxabarligi va ularning vakili bo'lgan Usmonni bundan xabardor qilishlarining sababi ham ana shunda. Yozuvchi ajdodlar ruhining mana shu ogohi uchun ikki olamni bir-biriga bog'lovchi vosita sifatida quduqni tanlagan.

Asarda yozuvchining o'zi hikoyachi-qahramon vazifasini bajarganligi bois, tasvirlangan voqealar uning xayolotida ro'y beradi. Ma'lumki, xayolotning uchqur qanotlari makon va zamon nuqtai nazaridan cheksiz parvoz qilish imkoniga ega.

Shuningdek, asarda keltirilgan "Assalomu alaykum" aytimi ham poetik vazifa bajaradi. Xalqimiz orasida ko'ziga govmijja chiqqan kishi ertalab turib itga, jiyda daraxtiga yoki hojatxonaga salom beradi, degan qarashlar mavjud. So'z magiyasi bilan bog'liq bu irim bajarilsa govmijja tuzaladi, deydilar. Xuddi shunday holatlarni, ko'pincha, xalq ertaklarida, odatda ajdaho, yalmog'iz va jodugar

obrazlari tasvirida ham uchramiz: epik qahramon ajdahoga duch kelganida bu mifologik jonzot og‘zidan olov sochgancha unga hujum qiladi. SHunday mifologik personaj timsoliga xos epik talqinni qo‘llagan yozuvchi havoning haddan tashqari issiqligi tufayli qahramonning chanqaganligini mubolag‘a tarzda tasvirlagan. Adib tasviricha, “bir to‘p kishilar engashib, quduq ichiga qarashdi. Usmon ham qaradi. Ba‘zan quduqlar ichida oy bo‘ladi, deb eshitgan edi. Bu quduqning ham tubida nimadir yaltirardi. Biroq, odamlarga oy emas, suv kerak edi. Pastga chelak tushirishdi. Chelak taraqlab, quruq chiqdi. Yana quruq! Parishonlanib, odam tushirib ko‘rishga qaror qilishdi”<sup>10</sup>.

Adib tasvirlagan bu lavha va unda ishtirok etgan personajlarning hattiharakatlari zamonaviy romanda tasvirlangan badiiy voqelik uchun ishonarli bo‘lishi kerak edi. Yozuvchi mifologizmni qanchalik chuqur singdirmasin, tasvirdagi ana shu badiiy haqiqatga o‘quvchini ishontirishga erishadi. Chunki haqiqatdan ham suvsab borayotgan yo‘lchining oldidan quduq chiqqanda u ana shu quduqqa umid ko‘zi bilan boqadi. Voqealar rivoji davomida adib yana epik motivlardan foydalanadi: “Bir odamning belidan arqon bog‘lab uzatishdi, quduqdan bu odamning jasadi chiqdi. Uning boshi kesilgan edi! Ikkinchi odamning beliga arqon bog‘lashdi. Buning ham jasadi chiqdi. Qilichmi, xanjar bilan tilkalab tashlangan edi. Uchinchi odam jur‘atlanib tushdi. Yana jasad. Bunisining ko‘ksida qo‘rg‘oshin. Endi quduqqa tushgani hech kimning yuragi dov bermay qo‘ydi»<sup>11</sup>.

Adib mana shundan so‘ng roman qahramonini xalq ertaklari ruhidagi fidoyi va matonatli obrazga aylantiradi. Asarning qahramoni Usmon boshqalar qatori oyog‘i bilan emas, quduqqa boshi bilan tushadi. Shu o‘rinda adib yana xalq ertaklariga xos epik tasvir usulini qo‘llaydi. Etti quloch arqon cho‘zilib, etmish quloch bo‘lib qoladi. Quduqning devorlaridan qiroat va boshqa ovozlari eshitiladi. Qahramon boshi bilan tushganligi uchun quduq tubidagi mis lagan atrofida o‘tirgan kishilar Usmonni o‘ldirishmaydi, aksincha, sharobmi, suvmi solingan kosani unga tutadilar. Usmon esa o‘zini emas, tashqarida qolganlarni o‘ylaydi.

---

<sup>10</sup> Омон Мухтор. Афлотун. Роман. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б.12.

<sup>11</sup> Омон Мухтор. Афлотун. Роман. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б.7.

Lagan atrofida gilar esa er yuzida yashaydigan odamlarni (aniqrog‘i, Usmon va uning yonidagilarni) tabiatni, zamin yuzini xarob qilganlikda ayblaydilar. Katta ijtimoiy-falsafiy ma’no singdirilgan bu lavhadagi badiiy tasvir xalq ertaklaridagi an’anaviy motivlarni eslatadi. Zero, “bu o‘rinda mifning yashash shakli va mazmunida xarakter jihatidan sof asotirlik xususiyati saqlanmaydi. Uning badiiy tafakkurdagi qoldiqlarigina roman janriga singib o‘tishi sodir bo‘ladi”.<sup>12</sup>

Biz ushbu asarni tahlil qilar ekanmiz, xuddi shunday motivni “Sirli tush” nomli o‘zbek xalq ertagida ham uchramiz: “Suvsagan karvon quduqdan suv olmoqchi bo‘lsa, hech suv chiqmabdi. SHundan so‘ng odam tushirishga majbur bo‘libdilar. Bir xizmatkorni belidan bog‘lab quduq ichiga tushiribdilar. Uning boshi kesilgan holda chiqibdi. Yana bir xizmatkorni tushiribdilar. So‘ngra tortib olsalar, tushgan odamning boshi kesilgan holda tanasi chiqaveribdi. Bu ahvoldan taajjublangan karvon ahli nima qilishini bilmay, shoshib qolibdi. Manzil yiroq, suv esa albatta kerak. Agar suv bo‘lmasa hammasi halok bo‘lishi mumkin. Shunda Salom: “Mayli men tushay, baxtimni sinab ko‘ray, meni belimdan bog‘lamangiz, oyog‘imdan bog‘lab, boshim bilan sekin-sekin tushiringiz, - debdi”. Chunki xuddi shu paytda qalandardan bir tillaga sotib olgan gapi esiga tushgan edi. Salomni quduqqa sekin-sekin tushirayotganlarida tirikmi, yo o‘ldimi deb “Salom” deb chaqirishibdi. Shunda birdan Salomning esiga “Assalomu alaykum” so‘zi kelibdida, “Assalom-u alaykum” deb yuboribdi. Quduq tubida ikki dev bir-biriga ro‘baro‘ bo‘lib o‘tirgan ekan”<sup>13</sup>.

Epik qahramonning quduqqa oyog‘i bilan emas, balki boshi bilan tushishi ham o‘zbek folkloridagi mifologiyaga daxldor an’anaviy motivlardan biri sanaladi. Jumladan, Samarqanddagi “Shohi zinda” obidasi bilan bog‘liq tarixiy afsonada ham shu motiv qo‘llanilgan.

Demak, ertak va afsonalar syujetiga xos bu an’anaviy motivlarning romanga ma’lum bir epizod sifatida kiritilishi bilan mazkur epik motivning ertak yoki mifdagi badiiy funksiyasi o‘zgarishga uchraydi: endi “quduq” detali

---

<sup>12</sup> Пирназарова М. Ҳозирги ўзбек романларида услубий изланишлар: Филол.фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 2006. - Б.81.

<sup>13</sup> Ўзбек халқ эртақлари. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995. – Б.8.

yoʻzuvchining badiiy niyatiga xizmat qiluvchi syujet elementiga aylandi. Bunday syujet yoki qahramon adabiy mifologizatsiya jarayonida oʻziga qoʻshimcha maʼno oʻtkazishni orttiradi va uning roman badiiy strukturasidagi poetik vazifani ham ana shu “maʼnaviy yumush”ni bajarishga qaratilgan boʻladi.

Omon Muxtorning tahlil qilinayotgan romanida adibning folklor anʼanalaridan ijodiy foydalanishning yana bir oʻziga xos jihati koʻzga tashlanadi: Bu folklordagi ertak-novellalarga xos epik rivoya usuli, yaʼni hikoyachi-qahramon obrazining «ichki epik pozitsiyada» turishi bilan belgilanadi. Omon Muxtorning “hikoyachi-qahramoni” voqealar silsilasining bevosita ishtirokchisi boʻlganligi uchun ham asar davomida “ichki epik pozitsiya”da turib voqelarni bayon qiladi. Aytuvchi shaxsining “ichki epik pozitsiya”da boʻlishi folklorga ham xos belgi boʻlib, masalan, “ogʻzaki hikoya janrida bayon qilingan hayotiy voqelik bilan aytuvchi shaxsi oʻrtasida bevosita bogʻlanish boʻladi. Aytuvchi bevosita oʻzi boshidan kechirgan, guvoh boʻlgan yoki voqea ishtirokchisining oʻz ogʻzidan eshitgan hodisalarni hikoya qiladi. Demak, aytuvchi oʻzi hikoya qilayotgan voqelikka qay jihatdandir daxldordir. Shuning uchun ham ogʻzaki hikoya janrida aytuvchi epik pozitsiyaning ichki shakli koʻzga tashlanadi”<sup>14</sup>.

Keyingi davr oʻzbek romanlarida folklorga xos epik rivoya usulidan samarali foydalanish bilan bir qatorda tasvirlangan voqealar talqinining badiiy ifodasida xalqimizning uch olam – koʻk, zamin va er osti dunyosi toʻgʻrisidagi kosmogonik qarashlari, jonning “oʻzga olam”ga safari haqidagi animistik miflarning oʻziga xos ifodasi ham, kuzatiladi. Bu hol, ayniqsa, biz tahlilga tortgan asarlardagi tush motivi bilan bogʻliq mifologik tasvirlarda ham koʻzga tashlanib, ijodkorning badiiy mahoratini oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Zero, qahramonning oʻzga olamga safari qadimgi turkiylarning uch olam – osmon, zamin va er osti dunyosi toʻgʻrisidagi qarashlari bilan bogʻliq mazkur motiv boʻlib, sehrli ertaklarda juda faol qoʻllaniladi. Bu motivning mifologik asoslari olamning tuzilishi bilan bogʻliq kosmogonik tasavvurlarga borib taqaladi. “Koʻk – zamin va erosti uchligi ilk mifologik qahramonlarning butun faoliyatini

---

<sup>14</sup> Сатторов У. Ўзбек халқ топонимик ривоятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 1999. – Б.45.

o‘zida mujassamlashtirgan epik makondir. Qadimgi turkiylar mifologiyasida ko‘k – tangrilar, yaxshi ruhlar maskani, zamin – insonlar diyori, er osti – yovuz kuchlar, o‘liklar olami sifatida tasavvur qilingan. Mifdagi trixotomik, ya’ni uch olam motivi o‘zbek xalq ertaklaridagi epik makon talqiniga asos bo‘lgan: qahramon safari uch yo‘nalishdan bittasiga qaratilgan bo‘ladi. Bu uch yo‘l qahramonni uch olamga etaklaydi: borsa kelar – ko‘kka; borsa xatar – zaminga; borsa kelmas – er ostiga. Epik makonning bunday afsonaviy tasviri xalqimizning qutblar hamda uch olam haqidagi mifologik tasavvurlari sintezi sifatida shakllangan”<sup>15</sup>.

Ma’lumki, tush motivi o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodiga xos an’anaviy syujet elementlaridan biri bo‘lib, muayyan motiv, voqelik yoki personajlar xatti-harakatining syujet talabiga ko‘ra uch marta qaytarilishi, ya’ni “uch takror” usuli epik tush motivi talqinida ham o‘z aksini topgan. Chunki, “bunday an’anaviy uchliklar navbatdagi sarguzasht uchun yo‘l ochadi va uning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi”<sup>16</sup>.

Ma’lumki, jahon folklorshunosligida tush talqinini mifologik tasavvurlar doirasida tekshirish amaliyoti ham mavjud. CHunonchi, mifshunoslikda “ruhiy-tahlil nazariyasi“ deb atalgan yo‘nalishga asos solgan taniqli olim Z.Freyd va uning izdoshlari qadimgi miflarning paydo bo‘lishini ibtidoiy odamning tabiatga bo‘lgan ongsiz hissiy munosabatlari bilan bog‘lab tadqiq qilishgan. Ular mif bilan tushni qiyosiy tahlil qilib, tushda ham xuddi mifdagi singari voqelik ramzlar vositasida bayon qilinadi degan xulosaga kelishgan<sup>17</sup>.

Z.Freyd, E.Fromm, K.G.Yung kabi olimlarning miflarni ruhiy tahlil metodi asosida o‘rganish usullarini o‘zbek folklorshunosligiga tadqiq etgan J.Eshonqul tush va mifni qiyosiy tadqiq etib, tush bilan mifdagi voqelik, ramzlar va kechinmalar talqini bir xildir, degan xulosaga kelgan<sup>18</sup>.

Binobarin, yozma nasrda ham qahramonning ruhiy holati va kechinmalarini keng ko‘lamda tasvirlash uchun tush motividan keng foydalanilgan. Tush inson ruhiyati bilan bevosita bog‘liq hodisa bo‘lib, kishi shuurini band etgan orzu-

---

<sup>15</sup> Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида “сехрли” рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.59-60.

<sup>16</sup> Қаранг: Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.147.

<sup>17</sup> Фрейд З. Тотем и табу. Пер. с нем. – М., 1923.

<sup>18</sup> Қаранг: Жаббор Эшонкул. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши, 1999. – Б.102-149.

istaklar, qoʻrquv, xavotirlanish kabi turli-tuman psixologik holatlar inson uyqudalik paytida uning ong osti hislarini faollashtirib, muayyan ramzlar vositasida ifodalanadigan axborotlar tizimini yuzaga keltiradi. Ana shunday ramzlashtirilgan axborotlar inson hayotida qachonlardir boʻlib oʻtgan voqea-hodisalarning timsoliy ifodasi yoki endi roʻy beradigan karomatli tushlar tarzida voqelanadi. Yozuvchi ham oʻz badiiy niyatidan kelib chiqib asarda tasvirlanayotgan voqealarni bir-biriga bogʻlash va qahramon ruhiy holatini yoritish maqsadida tushdan badiiy detal sifatida foydalanadi. Omon Muxtor “Aflotun” asarida Aflotun bilan Suqrotning tanishishidan avvalgi holatini tasvirlashda tush detalini badiiy vosita sifatida qoʻllagan: “Aflotunni uchratishdan oldin u tush koʻrgan: tushida goʻzal bir oqqush uning koʻksiga kelib qoʻngan, soʻng ajib nagʻma bilan yuksak fazolarga parvoz etgan. Va Aflotun roʻpara kelganida Suqrot: “Mana, mening oq qushim”, - deb nido qilgan edi”<sup>19</sup>.

Omon Muxtor romanning boshqa bir joyida anʼanaviy tush motiviga murojaat etish orqali psixologizmni yanada chuqurlashtiradi: “Tushimda oq kiygan nihoyatda koʻrkam, ulugʻvor bir ayol mening yonimga keldi. U menga, Suqrot, uchinchi kuni sening janozang oʻqiladi, – dedi”<sup>20</sup>. Adib Suqrotning tushlarini tasvirlashda xalqimizning tush bilan bogʻliq anʼanaviy inonchlariga, jumladan, karomatli tushlar toʻgʻrisidagi tasavvurlarga asoslangan. Xalq qarashlariga koʻra, odam oʻlgach, uning joni qush suratiga kirib tanani tark etadi va koʻkka – ruhlar olamiga parvoz qiladi. Shunga koʻra, Suqrotning tushiga kirgan oq qush ham aslida ulugʻ allomaning umri poyoniga etganligining nishonasi, yaʼni uning “hayot qushi” ruhlar olamiga parvozga chogʻlanganligiga ramziy ishora edi. Bu oʻrinda qushning oq rangli ekanligi, yaʼni “oq” rang simvolidan foydalanilganligi ham mifologik zaminga ega. Qadimgi turkiylarning mifologik tasavvurlariga koʻra, koʻkda yashovchi ulugʻ tangrilar haqiga oq qoʻy, er ostini oʻziga makon qilgan yovuz kuchlar uchun qora qoʻy qurbonlik qilingan. Oq rang – ezgulik, yaxshilik, yorugʻlik, ezgu ruhlar bilan aloqadorlik maʼnosini anglatrsa, qora rang oʻliklar

---

<sup>19</sup> Мухтор Омон. Афлотун. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б.10.

<sup>20</sup> Ўша асар. – Б.5.

mulki, yovuzlik, qorong‘ulik timsoli sanalgan<sup>21</sup>. Chunki, “rang bilan bog‘liq ramzlar xalqning ko‘p asrlik tarixida u yoki bu rang haqida yuzaga kelgan e‘tiqodiy kosmogonik tasavvurlariga asoslanadi”<sup>22</sup>.

Darhaqiqat, “Aflotun” romanida tush bilan bog‘liq tasvirlarda qo‘llanilgan rang timsollari badiiy detal vazifasini bajaradi. E‘tibor berilsa, asarda qo‘llanilgan har ikkala tushda ham oq rangning badiiy timsol sifatida ifodalanishi kuzatiladi. Oq rang – xalq qarashlarida yorug‘lik, poklik, yaxshilik va ulug‘vorlik timsoli. O‘zbek mifologiyasida oq rang ezgulik timsoli, deb qaralganligi sababli an‘anaviy marosim va urf-odatlarimizda bu rangning ramziy ma‘nosiga alohida e‘tibor beriladi. Masalan, nikoh to‘yi udumlari orasida “oqlik oldi”, “oqlik o‘radi”, “oqlik”, “oq kiydi” kabi rasm-rusumlar mavjud. Qiz tomon sovchilarga rozilik bildirgach, “oqlik oldi” udumiga ko‘ra, “oq ro‘mol” beradi. Ko‘pgina viloyatlarda mavjud bo‘lgan “oqlik” udumi bo‘yicha kuyov tomondan qudalar oldiga bir kosa sut va oltita non olib chiqiladi. To‘yda qudalarning peshonasiga oqlik bo‘lsin, deb un suriladi, ot-ulovlarning bo‘yniga oq ro‘mol bog‘lanadi va h.k. Ana shu kabi xalq qarashlarini yaxshi bilgan adib o‘z asarida “oq” rang simvolikasiga alohida badiiy vazifa yuklaydi: birinchidan, Suqrotning tushiga kirgan qushning oq rangda ekanligi uning ruhlar olami – ko‘kka daxldorligini anglatrsa, ikkinchidan, bu rang timsoli ezgulik belgisi o‘laroq talqin qilinishi qahramonning jamiyat taraqqiyoti uchun qilgan ulug‘ ishlariga ishora qiladi.

Shu bilan birga, tushga kirgan oq libosli ayol obrazi ham qush kabi nihoyatda go‘zal, ulug‘vor, sehrli va maftunkor qilib tasvirlangan. Birinchi tushda Aflotunning ulug‘ faylasuf olim Suqrot darajasiga ko‘tarilishi bashorat qilinsa, ikkinchi tush Suqrotning ulug‘vor o‘lim topishiga ishora o‘laroq bayon etilgan. Ayol (ona) obrazi dehqonchilik madaniyati rivojlangan xalqlarning agrar mifologiyasida serhosillik va go‘zallik ma‘budasi tarzida talqin qilinganligi bois, asarda Suqrot va Aflotunning go‘zal g‘oyalari va ezgu ishlarini asrdan-asrga etkazuvchi ramziy vosita sifatida berilgan. Bu esa, o‘z navbatida, adibning

---

<sup>21</sup> Сеидов М. Кож, ағ, гара рэнклариниң эски инамла элагәси // Известия АН Республика Ахарбайжан. Серия литература, язык, искусство. – 1978. – №2. – С.23-25.

<sup>22</sup> Жуматова Н.С. Ҳозирги ўзбек шеъриятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар. Филол. фанлари номзоди .... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б.12.



folklardan foydalanishdagi o'ziga xos badiiy mahoratini ko'rsatuvchi muhim detal hisoblanadi.

“Aflotun” romanida tasvirlangan voqealar talqini shunchaki muallif xayolotidan kechgan taxayyul kabi bayon etilgan, ya'ni eslatilgandek tarzda yozilganligi sababli asar mohiyatiga singdirilgan tush motivi ana shu xayolning og'ir va mas'uliyatli yukini o'z zimmasiga olgan. Tushning asar kompozitsion qurilishidagi roli va funksiyasi ham adibning psixologik tasviriga xizmat qilishdan iboratdir.

Tush bilan bog'liq xuddi shunday badiiy talqinlar Asad Dilmurodning “Mahmud Torobiy” tarixiy romanida ham uchraydi. Unda qalandar qiyofasida saroyga kelgan Mahmud Torobiy Xo'jand hokimi Mahmud Yalavochga “Tush ko'rdingizmi?”, – deb murojaat qiladi. Hokim bundan hayratga tushadi. Chunki chindan ham tunni notinch o'tkazgan hokim, darhaqiqat, tush ko'rgan edi. Tushida patlari tim qora kalxat uchib keladi-yu, Mahmud Yalavochni elkasiga mindirib Sumeru tog'iga keltirib, shu erdan er osti mamlakatiga borishi mumkinligini uqtiradi. Shunda g'oyibdan bir nido keladi: “Qimirla, hey, inson!”. “Yo rabbiy, faqir qayga borurmen?” – titrab ketgan noyib qo'rqa-pisa so'radi. G'oyibdagi ovoz tahdid qildi: “Rabbano senga begona, ul zotni unut!” Noyib bo'g'ziga yig'iga o'xshash narsa tiqildi: “Nechuk?” G'oyibdagi ovozning keskin xulosasi yangradi: “Sen jannatdan ham, do'zaxdan ham mosuvosan, Erlik hukmronlik qiladigan er osti mamlakatiga mahkum etilgansan”<sup>23</sup>.

Mana shundan so'ng qahramon boshidan og'ir sinovlar o'tadi. Chanqab suv ichmoqchi bo'lsa yoki bog'dagi mevalardan emoqchi bo'lsa ular yo yo'qolib, yo toshga aylanib qoladi. Ming bir azob bilan allaqanday kulbaning oldidan chiqadi, u erda esa Chingizxon va uning xotini Burta qurginni uchratadi. Qo'y haydab er yumshatayotgan Chingiz bilan o'z eriga nonushta hozirlayotgan xotin buni garchi tanishsa-da, juda sovuq qarshi oladilar, uni sotqinlikda, o'z yurtdoshlariga xiyonat qilganlikda ayblashadi. U Ulgen va Erlik degan zotlar qo'lida qoladi.

---

<sup>23</sup> Асад Дилмурод. Махмуд Торобий. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.135.

Ma'lumki, qadimgi turkiy mifologiyada Erlik yomonlik olamining hukmdori, Ulgen esa — bu e'tiqod bo'yicha ezgulik tangrisi hisoblanadi. Demak, Ulgen va Erlik ikki olam, ikki xil kuch timsolidir. “Olam ezgu va yovuz kuchlarning muvozanat, kurashidan iborat. Bu kurash inson ichkarisida, ruhiyatida ham aks etadi. Agar odam ruhiyatida yomonlik paydo bo'lsa, yovuzlik tangrisi uning ichkarisiga kirib olib, insonni faqat yomon ishlar qilishga undaydi, degan tasavvur bor”<sup>24</sup>.

Qadimgi turkiy miflarda aytilishicha, Ulgan olam ummoni ustidagi zaminni yaratgan. Ummonda suzib yurgan Ulgan o'zining onasi Oq Enaning maslahati bilan zaminni yaratgan va uning bevosita ishtirokida zamin yuzasidagi jamiki o'simliklar va jonivorlar olami yuzaga kelgan. Shu tariqa ulkan yorug'lik timsoli sifatida zamin egasi bo'lgan. Er osti dunyosi esa Erlik degan yovuz kuch ixtiyoriga berilibdi. Ana shunda Erlik er yuzidan hassaning uchi sig'arlik joy berishlarini so'ragan va unga shunday er berilgach, u o'zining hassasi bilan zaminni teshib, o'sha paytgacha zulmat dunyosi – er ostini o'ziga makon qilgan ilon, chayon kabi jonzotlarni er yuziga chiqargan ekan<sup>25</sup>.

Demak, Asad Dilmurod ham qadimgi turkiy qavmlar folkloridagi mifologik obrazlarni o'z asariga olib kirish orqali badiiy niyatini amalga oshirib, ezgulik va yovuzlik kurashi kontekstida obraz yaratishga urinadi. Folklorizmni asar syujetiga singdirish uchun u ham tush motividan foydalanadi. Tushda tasvirlangan voqelik orqali nafaqat asar qahramoni, balki kitobxonni ham yovuzlikning, qabohat olamining fojealaridan ogohlantiradi. Tushda tasvirlanishicha, dunyoni zir titratgan Chingizxon ham u dunyoga to'plagan boyligini emas, balki o'z amallarini olib ketadi. Darada muz qotgan shaxslar ham yomonliklarini meros qilib olib ketadilar. Chingizning uzundan-uzun nasihati esa uyqudan uyg'ongan hokimga qanchalik ta'sir qilmasin, u bundan to'g'ri xulosa chiqarmaydi. Biroq, yozuvchi o'z qahramonining ruhiy olamini kashf etish va badiiy talqinning ta'sirchanligini oshirish maqsadida tush motividan o'ziga xos poetik vosita sifatida foydalanadi.

---

<sup>24</sup> Эшонкул Ж. Миф ва роман // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1997. – 25 апрель.

<sup>25</sup> Дьяконова В.П. Религиозные представления алтайцев и тувинцев о природе и человеке // Природа и человек в религиозных представлениях народов Сибири и Севера. – Л., 1976. – С.269.

Buning uchun esa ertaklarda ko‘p uchraydigan er osti mamlakati, u erga olib boradigan yo‘l, epik qahramonni ustiga mindirib uchadigan qush, (ya’ni ikki olam o‘rtasida vositachi), qora rangli yovuzliklar kabi mifologik timsollarga murojaat qiladi.

Romanda odamni ko‘tarib uchadigan qush timsolining berilganligi ham bejiz emas. Chunki o‘zbek xalq ertaklarida xuddi shu vazifani bajaruvchi Semurg‘ obrazi keng ko‘lamda tasvirlangan. “Semurg‘ — qadim ajdodlarimizning ibtidoiy tushunchasiga ko‘ra, totemistik homiylik timsoli, botirlarga madadkor bo‘lmish ulkan qush. Bu go‘zal lirik obraz qachon paydo bo‘lganligini aytish qiyin, ammo Semurg‘ bilan bog‘liq qadimiy syujetlar SHarq xalqlari folklorida keng tarqalgan. U qahramonni ulkan qanotiga mindirib, er osti dunyosiga olib tushish yoki zaminga chiqarib qo‘yish vazifasini uddalay oladi”.<sup>26</sup>

Atoqli olim V.M.Jirmunskiy to‘g‘ri qayd qilishicha, “qahramonning er osti olamiga tushishi ertak va dostonlardagi eng qadimiy, keng tarqalgan motivdir. Gruzin folklorida bu vazifani, ya’ni qahramonni yorug‘ jahonga olib chiqishni Semurg‘ga funksiyadagi jonzot – Paskundji nomli sehrli qush bajaradi. Qirg‘iz eposi “Er Tushtuk”da esa Tushtukni er ostidan Alp Qora Qush nomli ulkan qush qutqaradi. Alp Qora Qush obrazi qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq va oltoy eposida qahramonlar homiysi va xaloskori sifatida gavdalanadi. Bu ertak syujeti asosida qahramonlarning er osti dunyosi – o‘liklar mulkiga safari haqidagi juda qadimiy mifologik tasavvurlar yotadi”<sup>27</sup>.

O‘tib ketgan kishilarning arvohi tushga kirishi va turli kirdikorlar girdobiga botgan qahramonni bunday yomon ishlar oqibatidan ogoh qilishi SHoyim Bo‘taevning ”Qo‘rg‘onlangan oy” romanida syujetning asosiy halqalaridan biri vazifasida kelgan. Asarda jonzotlar bilan bog‘liq mifologik qarashlar o‘z ifodasini topgan bo‘lib, burgut va oq bo‘kanlar roman syujet chizig‘ida harakatlanuvchi qahramonlar xarakterini yoritishning o‘ziga xos vositalaridan biri sifatida yuzaga chiqadi.

---

<sup>26</sup> Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.68.

<sup>27</sup> Жирмунский В.М. Введение в изучение эпоса «Манас» // Киргизский героический эпос – «Манас». – М.: Наука, 1961. – С.153.

Asarning ikki qahramoni, ya'ni Murtazo bilan Ismoilning ruhan yaqinligi tush orqali ifodalanadi. Bu shaxslarning ikkisi ham ov orqasidan pul topib, boyluk orttirishga mukkasidan ketgan. Bu yo'lda hech qanday yovuzlikdan tap tortmaydi. Ismoil hatto bosh egib turgan Ona bo'kanga ham o'q uzadi. Demak, milliy e'tiqod, rahm-shafqat degan tushunchalar ham unga begona. Ana shunday talqin CHingiz Aytmatovning "Oq kema" asarida ham e'tiqod va e'tiqodsizlik kontrasti tarzida uchraydi. Unda ovchiga bosh egib turgan ona bug'u otib o'ldiriladi. Har ikki asarda ham inson bilan tabiatning azaliy bir butunligiga rahna soladigan e'tiqodsizlikning tuban qiyofasini ochib berish ona bug'u va ona bo'kanning o'limi inson uchun fojealarga sabab bo'ladi, degan qarash ilgari surilgan.

Demak, Murtazoning tushiga kirgan Ismoil ham o'z taqdiridan saboq olishga undaydi va yovuz kuchlar xurujidan ogoh bo'lishga chaqiradi. Biroq, Murtazo o'z tushidan to'g'ri xulosa chiqarmaydi. Balki tushida Ismoil aytgandek, "YOvuz bo'l, yovuz bo'l! Yanada qudratvor yuksakliklar masnadingga aylanajak" degan aqidaga amal qilib yashashni ma'qul ko'radi. Natijada o'zi qilgan xatolar va yovuz kirdikorlari uchun jazolanadi: u ko'zidan ajraladi va jarlikka qulab ketadi. Bu asarda qo'llanilgan tush motivi ham qahramon uchun ogohlantirish va ayni paytda asar ta'sirchanligini oshirish vazifasini bajaradi.

"Qo'rg'onlangan oy" romanidagi tush motivi esa asar to'laqonligini ta'minlash bilan bir qatorda qahramon xarakterini oydinlashtirishga ham xizmat qilgan. Asarda shunday parcha mavjud:

– Qo'rqma, Murtazo, – dedi uning nomini atab shu bilan ko'ngliga taskin beruvchi allaqanday bir ohangda. – YUraging chiqib ketishini o'ylamagan edim.

– Kimsan? – Murtazoning tili bazo'r aylandi.

– Ismoilman!

– Qaysi Ismoil?

– Sening hamkasbing, ovchi Ismoilman. Nahotki, odamlardan eshitmagan bo'lsang? Birov ona bo'kanga o'q uzgan degan, birov to'ng'iz payhonlagan degan, yana birov ko'chalarda telbayona ishtonsiz izg'ib yurgan degan o'sha Ismoil-da axir!.. To'g'rirog'i, men Ismoilning vujudida vaqtinchalik maskan tutgan Yovuzlik

ruhiman”<sup>28</sup>. Ko‘rinadiki, inson tabiat va jonzotlarga ozor etkazmasligi, aks holda bu qilmishi uchun jazosiz qolmasligi asardagi tush motivi orqali uqtirib o‘tilgan.

“Qo‘rg‘onlangan oy” romani o‘zbek nasridagi badiiy tasvirning yangilanish jarayoniga xos tamoyillarni ko‘rsatadigan asarlardan biri hisoblanadi. Adib ushbu asar orqali o‘zining botiniy fikr olamiga xos qarashni qahramon ruhiyatiga singdirib, ijtimoiy muhitning inson hayotiga ko‘rsatadigan ta’siri to‘g‘risida hikoya qiladi. Asarda tasvirlanishicha, jamiyatdagi illatlar pok qalbli, ta’sirchan, nozik tuyg‘ular sohibi bo‘lgan Murtazoning qalbiga yovuzlik, xudbinlik va hatto, befarqlik urug‘ini ekadi. Natijada aslida tabiat go‘zalligidan zavqlanadigan va atrofida odamlardan faqat ezgulik kutadigan asar qahramonining ma’naviy olamida katta o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi. Oqibatda o‘zi ardoqlagan tabiatni poymol qilib uni oshiyon qilgan jonzotlarga nisbatan yovuzlik qilishga qodir bo‘lgan murtad shaxsga aylanadi. Murtazo o‘z sevgilisi Mavludaga nisbatan e’tiborsizlik va bepisandlik bilan qaraydi, hatto unga xiyonat ham qiladi. Inson tabiatining bu xilda o‘zgarishi, ya’ni tubanlashishi tashqi muhit ta’sirida yuz berganligini inobatga olgan yozuvchi asarning nomini bildiruvchi so‘zlarga ham ramziy ma’no tashuvchi badiiy yuk qo‘yadi. Xalq qarashlariga ko‘ra, oy atrofida tuman – g‘uborli halqa paydo bo‘lsa, ya’ni “oy qo‘rg‘onlansa”, buni “oy o‘ziga tinch, odamlarga notinch“ deydilar. Chunki oyning “qo‘rg‘onlanishi” yog‘in-sochin, havo o‘zgarishidan darak beradi. Adib “Qo‘rg‘onlangan oy”, ya’ni atrofni yulduzlar qurshab olgan oyni g‘ubor bilan “qo‘rg‘onlangan”, “o‘rab olingan” tarzida idrok qilar ekan, bu bilan asar qahramoni Murtazoning atrofida faqat shafqatsizliklar, nohaqliklar sodir etilaverishiga ishora qilayotganga o‘xshaydi. Chunki ijtimoiy muhitning beshafqat qo‘rg‘oniga tutqun bo‘lib qolgan Murtazo inson fenomeni nimalarga qodir ekanligini anglab etadi. Hatto keng osmon qo‘ynida erkin parvoz qilib yurgan burgutni o‘z maqsadlari yo‘lida qo‘lga o‘rgatishni ham “oddiy ish” deb biladi. O‘zining bunga qodirligini isbotlashga ham harakat qiladi. Yozuvchi asardagi ana shu badiiy lavhalar zamiriga singdirilgan tagma’no orqali sho‘ro siyosatining inson hayotiga, millat taqdiriga nisbatan qilgan

---

<sup>28</sup> Бўтаев Ш. Қўрғонланган ой. – Тошкент: Шарқ, 1995. – Б.145.

adolatsizliklarini ifodalashni asosiy maqsad qilib qo‘ygan. Millat farzandi ruhiyatining, dunyoqarashining tashqi kuchlar va yot g‘oyalar ta‘sirida o‘zgarib ketishi asarda teran tasvirlangan. O‘z tug‘ilib o‘sgan yurti, o‘z yurtdoshlariga nisbatan qilingan ijtimoiy adolatsizliklar, hukmron siyosatning “siyosiy o‘yinlari”, jamiyatni bamisoli qo‘rg‘onlangan oy kabi o‘rab olib, o‘z ta‘sir doirasiga tortgan edi. Asarni o‘qir ekanmiz, vaqti kelib o‘zbek xalqining ham ichki tug‘yoni va milliy g‘ururi Murtazo tomonidan qo‘lga o‘rgatilib, inson manfaatlari yo‘lida xizmat qilishga mahkum qilingan burgut kabi isyon etishini his etamiz. Natijada millatimizga “ulug‘ og‘alik” da‘vosini qilgan sho‘ro siyosati yaratgan omonat qadriyatlar chok-chokidan so‘kilib ketib, mafkuraviy qullik zanjirini pora-pora qilib tashlagan vatandoshlarimiz mustaqillikka erishishini yozuvchi o‘z asarida ramziy obrazlar zamiriga yashiringan haqiqatlar talqinida tasvirlaydi.

Yozuvchi mahoratining o‘ziga xosligi yana shundaki, rus millatiga mansub bo‘lgan yosh kelin-kuyov mehmonlarning ma‘naviy olamini ham juda ta‘sirli va ishonarli tarzda haqqoniy badiiy tasvirlar orqali yoritib bera olgan. Romanda bu toifa millat kishilariga xos bo‘lgan vatansizlik, yolg‘izlik, yashashni faqat yaxshi eb-ichishdangina iborat deb bilish va o‘z juftiga xiyonat qilish kabi salbiy sifatlar bu tip shaxslar tabiatiga xos odatiy hol ekanligi ochib berilgan. Adabiyotimizda ilgari kuzatilmagan bunday talqinlar yozuvchi tafakkuridagi evrilishning yangi va o‘ziga xos bir qirrasini sifatida ko‘zga tashlanadi.

Sh.Bo‘taev o‘zining “Qo‘rg‘onlangan oy” asarida o‘zbek xalq ertaklarida uchraydigan “borsa kelar”, “borsa xatar”, borsa kelmas” kabi yo‘llarga bo‘linib-bo‘linib ketadigan “chorsu” tasvirini chizishda ertak motivlaridan foydalangan holda o‘z fikrini quyidagicha davom ettiradi. “Bu chorsuga etish baxti afsonayu asotirlarda, ertaklarda bemalol uyquni urib yotgan bahodirlarga nasib bo‘lg‘ay, allaqaysi go‘rdagi muhojir emas, devlarni minib, mastonlarni yo‘lga solib ana shu bahodirlar kelgaylar”. Bu kabi tasvirlar orqali O‘rtaqaynar va Suzoq degan yurtda yashaydigan kishilar to‘g‘risida, ularning o‘ziga xos xarakterlari borasida fikr yuritadi. Ubaydulla chavandoz Suzoqqa Murtazoni ham etaklaydi.<sup>29</sup> Mifologik

---

<sup>29</sup> Бўтаев Ш. Қўрғонланган ой. – Тошкент: Шарқ, 1995. – Б.175.

talqindagi yovuz ruhning qahramon qalbiga joylashishi va uning badiiy asar syujetiga singib ketishi ushbu asarda etarli darajada asoslab berilgan. E'tiqod va rivoyatlarning qahramon hayoti bilan chambarchas bog'liqlikda berilishi roman syujetining asosini tashkil etuvchi voqea – hodisalar talqinining ishonarli chiqishiga sabab bo'lgan.

“Aflotun” bilan “Qo'rg'onlangan oy” romanlaridagi tush motivining badiiy talqinida har ikki adibning o'ziga xos uslubiy jihatlari ko'rinib turibdi. Nazarimda, yozuvchilar tush motividan foydalanish orqali o'zlarining psixologik tahlillarini yanada boyitib asar personajlarining ruhiy olamini to'laqonli talqin qilishga erishganlar. Odatda tush ruhiy kechinmalar mahsuli bo'lib, ta'bir bilan mukammallik kasb etadi. Bu ikki asarda esa tushning bevosita ta'biri emas, balki uning natijasi, ya'ni mohiyati haqida gap boradi. Adiblar asarga tush tasvirini olib kirish orqali o'quvchini voqelik tafsilotlariga yana bir bor ishontirish maqsadida qo'llagan holda ushbu tush motivining badiiy talqini o'quvchiga unchalik ham og'ir botmasligiga harakat qiladilar. Aksincha, tush motivi adiblarning fikrlari va tasavvurini to'ldirishga xizmat qiladi.

Har ikki adib tasviridagi muhit va mahalliy koloritning o'ziga xosligini oydinlashtirib, qahramonlar dunyoqarashini milliy an'analar zaminidan kelib chiqib tasvirilaydi. Asarda shunday parcha mavjud: “Biz – Rangontog' farzandlari, – derdi Zokir bulbul. – Undagi jonzoqlar, o't-o'lanlar barcha-barchasi qondosh-qarindoshlarimiz. Bizning eng yaqinlarimiz oq bo'kanlar bo'lgan”<sup>30</sup>.

Xuddi shunday tabiat ne'mati bo'lgan tog'u toshlar, hayvonot va nabotot olamining jozibasi, sehrli kuchi, go'zalligi to'g'risida Ch.Aytmatov, Sh.Xolmirzaev va N.Norqobilov kabi iste'dodli adiblar ham mahorat bilan qalam tebratishgan. Ular o'z asarlarida bu mavzuda o'zlariga xos tarzda mehr va faxr bilan so'z yuritishadi. SHuningdek, tabiatni asrash va jonzoqlarni huda-behudaga ovlamaslik to'g'risidagi qadimiy qarashlarning badiiy talqinini Sh.Xolmirzaevning barcha asarlarida ko'rish mumkin. Ayniqsa, uning tabiat va tog'larga, ona-yurt

---

<sup>30</sup> Ўша асар. – Б.26.

go‘zalligiga bo‘lgan munosabati asarlarida ona va farzand o‘rtasidaga samimiy mehr-muhabbatga qiyoslanishi bilan ajralib turadi.

Sh.Bo‘taevning “Qo‘rg‘onlangan oy” romanida aynan tabiat va hayvonot olamiga murojaat, ya’ni burgut tasviri uchragani kabi Sh.Xolmirzaevning “Bandi burgut” hikoyasida ham mag‘rur va qaysar burgut xarakteri yoritiladi. Bu adiblar o‘z asarlarida burgut bilan bog‘liq mifologik qarashlardan unumli foydalanishgan. CHunonchi, Sh.Bo‘taev bu mavzuni yoritishda qahramonning tabiatga va jonzotlarga bo‘lgan mehri, shuningdek, ichki dunyosini ko‘rsatish maqsadida folklor an’analaridan ijodiy foydalana olgan.



## **II Bob. O‘zbek romanchiligida milliy qadriyatlar talqini**

XX asr o‘zbek romanchiligida milliy ruh va xarakterlar talqinini o‘ziga xos tarzda ifoda etgan o‘nlab asarlar yaratilganligini kuzatish mumkin, biroq, ayni o‘sha asarlarda xalqimizning milliy qadriyatlari, xalq og‘zaki ijodi an‘analaridan unumli foydalanishganini ham e‘tiborga olish kerak bo‘ladi. Chunki milliy ruh muayyan etnos an‘analari muhitida shakllanadi, xalqning urf-odatlarini, marosim va og‘zaki adabiyot an‘analari milliy muhitni tashkil etuvchi hodisalar tizimini tashkil etadi. Shunday ekan, milliy xarakterning shakllanishiga sabab bo‘lgan milliy qadriyatlar va an‘analar mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida qay darajada aks etganligini o‘rganmay turib, milliy ruh haqida muayyan ilmiy xulosalarga kelish mumkin emas.

XX asr o‘rtalaridagi Evropa romanchiligida folklor an‘analarining kuchayishi barobarida folklorizmning yangicha shakl va yo‘nalishlari rivojlanganligi ham ko‘rinadi. Asar qahramonlari ma‘lum ma‘noda romanga asos qilib olingan folklor motivining ishtirokchilariga aylanadilar. Endi folklorizm roman mohiyatini o‘zida aks ettiruvchi badiiy - estetik asosga aylanadi. Folklor qahramonlari asarda o‘z hayoti bilan yashaydi, binobarin, badiiy asar syujeti ham folklor asarining qayta hikoya qilingan varianti emas, balki bugungi kun voqealari tasviridan iborat strukturual birlikdir. Bu tip romanlarni tushunish va qahramonlar harakati zamiridagi ma‘noni anglash uchun kitobxon avvalo folklor motivlaridan xabardor bo‘lishi kerak. Xususan, Tomas Mann qahramoni Gans Kastorp o‘z xarakteriga munosib ravishda ish tutmaydi, balki u folklordagidek o‘zi ham davolovchi, ham mijoz sifatida gavdalanadi<sup>31</sup>. U o‘zini o‘zi davolash orqali katta ilmiy haqiqatni ochmoqchi bo‘ladi. Biroq, uning barcha harakatlarini qahramonning “mifik o‘tmishi” boshqarib turadi.

Buyuk nemis adibi boshlab bergan bu an‘ana, ya‘ni romanga folklor motivlarini olib kirish jarayoni tez orada butun Evropa adabiyotida etakchi badiiy taomilga aylandi. Ma‘lum vaqtdan keyin hatto okean ortiga ko‘chib o‘tib, AQSH va Lotin Amerikasi mamlakatlari romanchiligiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi.

---

<sup>31</sup> Ленц З. Настоящее и будущее литературы / Судьбы романа. – М.: Прогресс, 1975. – С. 245.

XX asr Amerika romanchilik maktabining yirik vakillaridan biri U.Folkner ijodida folklor motivlariga asoslangan romanlar o'zining yangi qiyofasini kasb eta boshladi. Uning "Rivoyat" romani nasroniylik dinining tarixi, jumladan, Iso Masih hayotiga bag'ishlangan. Bu asar tarixiylikdan ko'ra ko'proq Injil mifologiyasi asosiga qurilgan syujet tizimi bilan xarakterlanadi. Romanda talqin qilinishicha, Iso Masih bugunning qahramoni, biroq muallifning nazdida, u o'zidagi barcha payg'ambarlik sifatlarini saqlagani holda hozir hayot bo'lganida ham, uning umri xochga mixlanish bilan yakunlangan bo'lardi. Chunki uning qismatida, birinchidan, taqdir hukmi aks etgan, ikkinchidan, atrofidagi olomon uning buyukligini va ilohiy qudrat sohibi ekanligini tushuna olmagan sababli ham ayni mana shu motiv roman xulosasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shuning uchun ham bu asar "xarakterlar romani" emas, balki taxayyul po'rtanasi aks etgan g'oyalar romani, falsafiy tafakkur va uning zamonaviy talqinlarini o'zida aks ettirgan asar sifatida baholandi. U.Folkner o'z romanini ongli ravishda "pritcha" (rivoyat) deb atash bilan Injil rivoyatidan bugungi kun uchun zarur bo'lgan falsafani topib tasvirlagan<sup>32</sup>.

Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romaniga nisbatan ham xuddi shunga yaqin holatni aytish mumkin<sup>33</sup>. Asardagi Pontiy Pilat va Iso Masih to'g'risidagi an'anaviy syujet narkobiznezchilar bilan Avdiy Kallistratov munosabatlari aks etgan lavhalar bilan parallel kechadi. Biri o'tmishning ulkan sabog'i bo'lsa, ikkinchisi, bugunning achchiq qismati. Farq shundaki, ayni voqelik ikki xil davr, ikki xil muhit tizimida tasvirlanadi. Biroq, xulosa bir xil, ikki ruhan yaqin bo'lgan qahramonlarning qismati bir xil: Iso Masihni g'oyalari uchun xochga mixlashgan bo'lsa, Avdiyni halolliги uchun saksovluga osib ketishadi. Har ikki holatga ham jaholat hukm o'qigan degan xulosaga kelinadi.

XX asrning 20 - yillariga qadar yaratilib, o'z davridayoq Koshkin rahbarligidagi tarjimonlik maktabi vakillari tomonidan rus tiliga o'girilgan bo'lsa-da, sho'ro siyosati mafkurasining zug'umi tufayli nashr etilishi to'xtatib qo'yilgan irland yozuvchisi Jeyms Joysning "Uliss" romani o'zbek tiliga tarjima etilishi

---

<sup>32</sup> Грибанов Б. Фолькнер. – М.: Молодая гвардия, 1976. – С.314-315.

<sup>33</sup> Айтматов Ч. Қиёмат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – 560 б.

bilanoq matbuotda u haqda ayrim mulohazalar e'lon qilindi. Jumladan, Xurshid Do'stmuhammadning "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida e'lon qilingan bir maqolasida ushbu asarni o'zbek romanlari bilan bog'lashga intilish tamoyili yaqqol sezilib turishi e'tiborlidir. Ayni roman muallifi XX asrning o'rtalaridayoq Frans Kafka bilan birgalikda jahon modernizmining "otasi" sifatida talqin etila boshlagan edi<sup>34</sup>. Chunki o'n sakkiz epizoddan iborat bu romanda tasvirlangan voqealarning aksariyati qadimgi yunon mifologiyasi va folklori asosiga qurilgan. Telex, Siklop, Penelopa kabi mifologik personajlarning yangicha talqindagi ifodasi tufayli asarning syujet va kompozitsiyasida ilgarigi romanlarda kuzatilmagan o'ziga xos badiiy qurilmalari yuzaga keldi. Mohiyatan bu roman butunicha mifologik tafakkur asosiga qurilgan bo'lib, adib zamonaviy mavzuni mifik tasavvur ko'lamida tasvirlash yo'lidan boradi.

O'zbek romanlariga ham milliy qadriyatlar turli xil shakl va uslubiy vositalar orqali kirib kelgan. Ayrim romanlarda diniy motivlarning to'g'ridan-to'g'ri tasviri berilsa, ba'zi asarlarda Xizr, azroil, shayton kabi an'anaviy obrazlarga murojaat qilish orqali yozuvchi o'z badiiy niyatini amalga oshirishga erishadi. Shoyim Bo'taevning "Qo'rg'onlangan oy" romanida keltirilgan azroil to'g'risidagi afsona asar mazmunini yanada boyitib, voqelikning ta'sirchanligini oshirib, talqinning ishonarliligini ta'minlagan. O'z o'g'lining fe'li haqida guvohlik berayotgan chol: "O'g'lim allaqanday muhr bosilgan qog'oz ko'tarib keldiyu, shundan so'ng ovga battar sho'ng'ib ketdi, – degandi u tutila-tutila. – Endi har kuni biror jonzo'tning jonini dorilbaqoga jo'natmasa tinchimasdi..." deb chol o'limoldi talvasasi bilan atrofdagilarga javdirar ekan, adib bu tasvir orqali ikki maqsadni ko'zda tutgan. Birinchi maqsad – qahramonning ruhiy holatini ko'rsatib berish bo'lsa, ikkinchi maqsad esa, azroilning jon taslim qilayotgan banda bilan uchrashishi holatidagi psixologik kechinmalarni xotira tarzida tasvirlash orqali asarga hayot va o'lim falsafasini singdirishdan iboratdir.

Asarda keltirilgan afsona qahramon yoki muallif tilidan emas, balki to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchi qahramon sifatida tasvirlangan azroilning nutqi orqali

---

<sup>34</sup> Дудова Л.В., Михальская Н.П., Трыков В.П. Джеймс Джойс: мифотворец XX века / Модернизм в зарубежной литературе. – М.: Наука, 2001.

bayon etilgan. O‘z kasbidan bezor bo‘lgan Azroilning Yaratganga murojaati romanda shunday talqin qilinadi: “Bir gal Azroil Qodir Muxtorning oldiga arz bilan chiqdi. Chor atrofning bodu havosi nash’a tashlab turgan masnad poyiga qaltirab cho‘kkancha, ko‘z yoshlarini to‘kdi, aytdi:

– Ulgurolmayapman, yana boshqa bir jon olguvchi buyuring...

– U chog‘da farishtayu maloikalarning ham son-sanog‘ini o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi, –dedi Xudo bir oz past, qat’iy hamda o‘ktam ovozda. Dunyoni bunyod etganimizdan buyon amal qilib kelgan tartiblarimizga putur etadi, – deb bunday qilolmasligining asl sababini ham aytib qo‘ya qoldi.

– Mening yaktoligim ham shubhali tuyuladi...”

Romanda tasvirlanishicha, Azroilning arzig quloq solib, Xudovand unga ongi-shuuri bilan ish ko‘rishlikni maslahat beradi va undan:

– Shayton yo‘rig‘ingga yuradimi? – deb so‘radi.

– Joningni olaman deb qo‘rqitsam yurmay ham ko‘rsin-chi!

– Unda yurgiz!

– Yorug‘ olamning pok taomili – o‘limga ham shayton ilki uzansa qanday bo‘larkin?!

– Ruhlarga shaytonning ilki zahmat etkazolmaydi.

– Albatta, albatta! – Azroil jonlanib o‘rnidan turdi va shitob bilan pastga sho‘ng‘idi...

Tikka borib uning (Ismoilning otasi – Sh.D.) derazasiga yopishdi:

– Bo‘rining esayam og‘zi qon, emasayam, – derdi Ismoilning qoqsuyak bo‘lib qolgan otasi girdi-tevaragini o‘rab olishgan qondosh qarindoshlariga o‘kina-o‘kina. O‘g‘lim endi biror narsa ovlaydimi-ovlamaydimi, har yili hukumatga ul-bul topshirib turishga majbur edi...

Azroil ichida kuldi. Vo-oy qurmagir shayton-ey, bu sho‘rlik bandalarning qo‘l-oyoqlarini zanjirsiz shunday kishanlaydiki, ular qancha urinmasinlar, o‘zlarini ming maqomga solmasinlar, qutulib ketishning baribir ilojini topisholmaydi. Boshqacha tarzda aytadigan bo‘lsak, shayton yo‘rig‘iga yurganlarning ham,

yurmaganlarning ham holiga voy. Qanday bo‘lmasin, bu kaltadum maxluqlarga tan bermay iloj yo‘q...”<sup>35</sup>.

Yuqorida keltirilgan ko‘chirmadan ko‘rinadiki, Azroil to‘g‘risidagi afsona qahramon nutqi orqali asarga kiritilgan bo‘lib, u zamona shaytonlari, ya‘ni sho‘ro tuzumi tomonidan inson bo‘yniga ilingan bo‘yinturuq uni erkin harakat qilishga qo‘ymayotgani, aksincha, kishi qanday harakat qilmasin, bu tushovdan chiqib keta olmasligiga, mafkura qoqqan qoziq atrofida aylanishga majbur ekanligiga ishora qilingan.

Islom ta‘limotida jon oluvchi farishta sifatida e‘tirof etilgan Azroil to‘g‘risidagi rivoyatni asarga kiritishdan ko‘zlangan maqsad insonlar orasidagi dog‘uli “tip”larni, ya‘ni makkorlikda “shaytonlarga ham dars berishi” mumkin bo‘lgan ayyor va g‘irromlarni ko‘rsatishdan iborat. Chunki ularning kirdikorlaridan hatto Azroil kabi farishtalar ham xijolat tortadi, bunday shaytonsifat insonlar etti uxlab tushga ham kirmaydigan buzuqiliklar qilishadi. Bunday kishilarning nafaqat jamiyatdagi, balki o‘z oilasidagi insoniylik mavqei ham muhim o‘rinda emas. Ularning qing‘irliklarini yaqinlari bilib turadilar, lekin asarda tasvirlanganidek, hatto o‘lim to‘shagida bo‘lmasinlar, undan voz kecha olishmaydi. Ular hatto eng so‘nggi manzil – dorulbaqoga ravona bo‘layotganlarida ham nohalol yo‘llar bilan o‘z kirdikorlarini yashirib ketishni unutmaydilar. Mana shunday kimsalarning asl qiyofalarini ochish uchun ham muallif romanga noreal voqealar tafsilotini kiritib, insonning jamiyatdagi o‘rni va tabiat hodisalariga munosabati orqali uning shaxsini, xarakterini ochib berishga harakat qiladi.

Muallif bu o‘rinda hikoyachi-qahramon nutqini qo‘llash usulidan foydalangan holda asar kompozitsiyasida muhim o‘rin tutgan kiritma epizodni mahorat bilan roman syujetiga payvandlaydi. Bu epizod bevosita asar voqealariga bog‘lanmasa-da, syujetga dahldor bo‘lmagan ikkilamchi kompozitsion vosita sifatida asar badiiy to‘qimasida muhim o‘rin tutadi. Yuqoridagi asar muallifi Azroil va Shayton munosabati vositasida insoniyat jamiyatidagi fosih shaxslarning kirdikorlarini fosh etsa, ayrim romanlarda odamlardagi shaytoniy qiyofani

---

<sup>35</sup> Бўтаев Ш. Қўрғонланган ой. – Тошкент: Шарқ, 1995. – Б.94-95.

bo‘rttirib ko‘rsatish uchun, shuningdek, rahmoniy va shaytoniy dunyo ziddiyatini tasvirlashda ana shu an’anaviy obrazga murojaat etilganini kuzatamiz.

Shoyim Bo‘taevning “Shox” deb nomlangan romanida ham an’anaviy obrazlarning o‘ziga xos ramziy bo‘yoqdorlik bilan tasvirlangan zamonaviy qiyofalarini tasvirlash tamoyili ustuvorlik qiladi. Adabiyotshunos H.Karimov o‘zining bir maqolasida “Shox” romani Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” va Adam Jeksonning “Boy bo‘lmoqning o‘nta siri” asarlarini yodga solishini eslab, shunday yozadi: “...zamonaviy asarlarda real hayotning o‘zigina ifodalanmay, yangicha uslublar yordamida o‘tmish va bugun, rivoyat va real hayot voqealari orqali jamiyatlardagi munosabatlar va odamlar qiyofasi yorqin ranglar bilan aks ettirilmoqda”<sup>36</sup>.

Darhaqiqat, bu asarni o‘qir ekan, kitobxon gunoh va xiyonatning asl ildizini kashf etgandek bo‘ladi. Insonni turli yo‘llarga boshqarib turadigan ko‘rinmas kuch borligini va bu kuch uning qoniga singib ketganligiga, hatto yuragida makon tutganligiga guvoh bo‘ladi. Yozuvchi mana shu qonning buzilishi bilan bog‘liq qadimiy rivoyat syujetini asarga olib kirish orqali hamisha insonning eng pok go‘shasi – qalbini egallashni ko‘zda tutgan shaytonning hiylakor obrazini asar ruhiga singdirib yubora olgan. Chunki qalb buzilsa, ya’ni inson yuragini shaytonga berib qo‘ysa uning butun ruhiyati, vujudi va qismati qabohatga botadi. Qolaversa, muallif qonida shaytoniy hislatlar jo‘sh urgan bugungi kun kishilarining badiiy qiyofasini ham chizib bergan. Adib o‘z asarida zamonamiz tadbirkorlari va ishbilarmonlarining vakillari Hotam va Qulmahmud obrazini mahorat bilan tasvirlab, bugungi kun kishisining qiyofasini an’anaviy talqinlar bilan uyg‘unlashtirib yuborgan.

Shuningdek, shaytonning avlodi sifatida tasvirlangan janob Ximer va uning bir to‘da gumashtalari obrazi ham qahramon talqinini chuqurlashtirishga xizmat qilgan. “Janob Ximer bobosi Iblisning er yuziga tushishi haqidagi turli xalqlarda turlicha to‘qilgan yuzlab rivoyatlardan yana bittasini shu kitob ichidan topib olib qiziqsinib ko‘zdan kechirmoqda edi.

---

<sup>36</sup> Каримов Х. Эгри шохнинг синиши // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2008. – 18 апрель.

Sehrlanganday kitobdan ko‘z uzolmay turarkan, uning gezargan lablari:

– Odam Sarandib tog‘iga tushdi...– deya g‘ijirayotganday pichirladi.

So‘ngra och nigohi bilan yutoqib, buning davomini izlay boshladi...»<sup>37</sup>.

Asardagi ushbu epizoddan boshlab uning shaytoniy sifatlari ko‘zga tashlanaveradi. Shaytoniy olam makkorligi insonni yo‘ldan urib, uning qalbiga iblis istaklarini singdiradi va oxir – oqibat gumroh odamzod ustidan kuladi.

Asarda Hotam bilan Qulmahmudning savdo-sotiq qilish uchun rus o‘lkasiga borishi tasvirlanadi. Ularning maqsadi mo‘may daromad qilish. Bu yo‘lda Hotam ancha-muncha tajribaga ega, uning og‘irini engil qiladigan Larisa Ziganshinaga o‘xshash yaqin odamlari ham bor. Bu ayol katta kuchga, mavqega va moliyaviy imkoniyatlarga ega. Uni Hotamning sovg‘a-salomi emas, balki ehtirosli og‘ushi qiziqtiradi. Shu bois, «osiyolik»ni intiqlik bilan kutadi. Hotam ham bu munosabatdan o‘ta ehtiyotkorlik bilan foydalanadi. Bir galgi kelishida hamyurti Qulmahmudni bir chemodan karkidon shoxi bilan birga olib keladi. Ana shu safar tafsilotlari tasviri bilan asar syujetidagi voqealar rivojlanadi. Yozuvchi shox bilan bog‘liq voqealar tasviri davomida bugungi kunda jamiyatimizda ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar, hozirgi davr kishisining tabiati, ruhiyati va dunyoqarashidagi yangilanishlar, hamda ana shu ruhiy evrilishlarning ijobiy va salbiy oqibatlari to‘g‘risida fikr yuritadi, mushohada qiladi.

Romanning ilk sahifalarida Rossiyaga olib borgan uzumini sotolmay qiynaladigan sodda va pokdomon Ahmad aka asar so‘ngida shayton izmiga tushgan makkor shaxs sifatida gavdalanadi. Chunki u zamonaviy shayton janob Ximer ta‘siriga tushib qoladi va natijada endi u tuyoq haqida bosh qotiradi. Boylik ortirish maqsadida yo‘lga chiqib, o‘zga yurtlarga kelib qolgan Qulmahmud esa ishqiy munosabatlarga mukkasidan ketadi. U gunoh va savobni, halol va haromni, burch va sadoqatni batamom unutadi. Jismonan baquvvat bo‘lib, rus ayollarini yanada lol qilish maqsadida karkidon shoxidan me‘yoridan ko‘proq iste‘mol qilgani uchun o‘z yurtiga majruh bo‘lib qaytadi, ruhiy dardga chalingani bois, nafaqat o‘z muvozanatini, balki o‘zligini yo‘qotgan kimsaga aylanadi. Uning

---

<sup>37</sup> Бўтаев Шойим. Шох. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.109.

yuragini kemirib, qoniga kirib olgan shaytoniy xislatlar oxir-oqibat soxta dabdabalar qurboniga aylantiradi.

Larisa Ziganshina, Liza, Rita, Polina esa o‘z oilasiga, turmush o‘rtog‘iga xiyonat qilib umrguzaronlik qiladigan rus ayollarining vakili sifatida talqin qilingan. Ularning hayosizliklari, ishqiy o‘yinlarga mukkasidan ketib ayollik sha‘nini ham unutganliklari asarda shaxsning fojeaviy qismati darajasiga ko‘tarilgan.

“Ko‘k alanga” korporatsiyasining boshlig‘i janob Ximer esa shayton obrazining zamonaviy qiyofa kasb etgan ko‘rinishidir. Uning maqsadi aniq–dunyoni gunoh va hayosizliklar bilan buzish, insonning e‘tiqodlarini izdan chiqarish. SHuning uchun Hotam bilan Qulmahmud olib borgan karkidon shoxidan foydalanib, jahonda zinoning avj olishiga hissa qo‘shishga urinadi. U ”Visol” firmasi tomonidan “Oltin shox” shou dasturini o‘tkazadi va bu tadbirga hokimliklar vakillari, olimlar va ijodkorlarni ham jalb qiladi.

Shu o‘rinda yozuvchi ramziy obrazlar zamiriga yashiringan kinoyalar va qochirimlar orqali bizga ma‘lum bo‘lgan ba‘zi voqealarga, kishilarga ishoralar qiladi. Shiori “Biz albatta g‘alaba qozonajakmiz” bo‘lgan janob Ximer esa ko‘zlaridan ko‘k alanga sachratib, o‘zining shaytoniy xislatlarini namoyish qilishda davom etaveradi. Chunki asar boshida keltirilgan rivoyatda ham odam qoniga kirish uchun yo‘l izlayotgan shaytonning aynan shu so‘zlarni takrorlashi Ximer tipidagi shaytoniy olam vakillarining maqsadi insoniyatga kulfat keltirishdan iboratligiga dalildir.

Yozuvchi shox bilan bog‘liq tafsilotlarni berar ekan, Iskandarning shoxi borligi haqidagi mashhur rivoyatni ham qistirib o‘tadi. Shu bois, Iskandar Zulqarnaynning laqabi «qo‘sh shoxli» degan ma‘noni anglatishini eslatib, u bilan bog‘liq voqealarni Iskandarning sochini olgan sartarosh qismati orqali bayon qiladi.

Adib “Oltin shox” shou dasturida ishtirok etayotganlarni shunday tasvirlaydi: “Sahnaning o‘ng tomonida, eng chetda uch boshli it o‘tiribdi. Uning



yarqiroq ko‘kish ko‘zlari zalning uch tomonini nazorat qilayotganday”<sup>38</sup>. Muallifning izohidan ma’lum bo‘lishicha, uch boshli it yunon mifologiyasiga ko‘ra, er ostida joylashgan o‘liklar saltanati yo‘lini qo‘riqlovchi it – Kerberdirning timsoliy qiyofasidir.

Asarda imon-e’tiqoddan mosuvo bo‘lgan, hayo pardasi ko‘tarilgan odamlarning jirkanch qiyofalari tasvirlanadi. Bu holat bugungi kunda manfaat va yaxshi yashash uchun har qanday yo‘llarni bo‘lsa-da, tanlashdan tap tortmayotgan ba’zi shaxslarning ma’naviy olamida yuz berayotgan inqiroz bo‘lsa ajab emas. Adib bema’ni hayot sahnasini shunday tasvirlaydi: “Chiroqchilar hayajondanmi-qo‘rquvdanmi, nima qilishlarini bilmay qolishdi shekilli, hadeganda chiroq yonavermedi.

Axiyri, hammayoq charog‘on bo‘lib ketdi-yu, shu lahzadayoq zal qorong‘ulashib, sahna yorishganicha qolaverdi. Bu mahal sahnada Xitoy estrada guruhiyam, ajdar ham ko‘rinmas, faqat dumli, shoxli, tuyoqli odamlargina yurishardi.

Ularning ba’zilari Abul Havo qiyofasiga kirib olishgan, favnlar, satiralar rolini bajarayotganlar ham to‘lib-toshib yotar edi”<sup>39</sup>.

Ma’lumki, Abul Havo arab afsonalariga ko‘ra, boshi va ko‘kragi ayol suvratida, tanasi esa moda sher bo‘lgan xayoliy mavjudotdir. Favnlar esa yunon mifologiyasida yovvoyi hirsni o‘zida mujassamlashtirgan va faqat ana shu hayvoniy hirsiga tobe mavjudot nomidir. Satiralar-yunon mifologiyasiga ko‘ra, ana shu hirsning qullaridir. Demak, yovvoyi hirs yo‘lida o‘zining insoniy qiyofasini unutgan bir guruh kimsalarning ramziy qiyofasi asarda tasvirlangan mifologik obrazlar zimmasiga yuklangan.

“Eng yaxshi shox” mukofotining egasi nomini olgan Qulmahmud odamlar ko‘z oldida aqldan ozgan kishidek harakatlar qiladi. Uning bunday notabiiy harakatidan vahimaga tushgan Hotamga esa janob Ximer tasalli berib, bu hodisaning sababini inson qonidagi ko‘pirib toshishlar bilan bog‘liqligini tushuntirmoqchi bo‘ladi. Vaholanki, bu ishlarning boshida uning o‘zi turgan edi.

---

<sup>38</sup> Бўтаев Шойим. Шох. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.339.

<sup>39</sup> Бўтаев Шойим. Шох. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.249.

Ming bir mashaqqat bilan hamqishlog‘ini jinnixonadan olib chiqib, o‘z yurtiga qaytgan Hotam barcha sir-sinoatlarni tushunib etadi. Biroq, tabib va mulla-eshonlarga qaratishga qaramay, Qulmahmud shoxli hayvonlarni ko‘rsa dardi tutadigan bo‘lib qoladi. Uni gunoh va xiyonat azoblaydi. YOzuvchi ezgulikka qarshi qaratilgan qabohatning azobini anglatish uchun asarga ana shunday obrazlarni olib kirgan edi.

Zamonaviy mavzuga bag‘ishlangan romanlarda bunday shayton va inson munosabatlarining tasvirlanishi asar syujet qurilishiga afsona va rivoyatlarning olib kirilishi bilan bog‘liqdir. Noreal voqealarning bayon etilishi va folklor motivlarining qo‘llanilishi bevosita muallif nutqi orqali ham asarga kiritilishi mumkin. Jumladan, Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” romanidagi Odam Ato va Momo Havoning taqdiri to‘g‘risidagi afsona muallif nutqi orqali asarga singdirilib boriladi. Bu afsona asarning kompozitsion qurilishida muayyan o‘rin tutib, qahramonlar hayoti va taqdiriga qiyosan falsafiy mohiyat kasb etadi: “Olam uzra zulmat hukmron edi u paytlar. Na qittay yorug‘lik bor edi va na jinday harakat. Ehtimol, mavjud edi ular. Biroq, zulmatning qa’rida cho‘kib yotardi. Boshqa yoqdan esa yorug‘likni, harakatni ko‘ra oladigan, ularni idrok eta biladigan xilqatning o‘zi yo‘q edi. Faqat Tangri taolo bor edi. Vaqti kelib U bilinmoqni istadi. Zulmatning qornini yorib, butun boshli dunyo yaratishni niyat qildi. Va “Yorug‘lik bo‘lsin!” dedi. Shunda zulmatning bag‘ri chok-chok so‘kilib, ichidan nur oqib chiqdi. Dunyoda zulmat va nur, tun va kun paydo bo‘ldi. Bu yaratilishning birinchi kuni edi...”<sup>40</sup>.

Afsona talqinidagi yaratilishning birinchi kuni qahramonning turmadan ozodlikka chiqishi bilan parallel holda tasvirlanadi. Roman voqealaridan ma’lum bo‘lishicha, u o‘z o‘quvchisini bir shapaloq urgani uchun qamalgan edi. Uning qalbida nur, kelajakka ishonch yo‘q edi. Ammo o‘sha qora turmaning azoblari ortda qolib, u ozodlikka chiqdi. Jamiyatdagi adolatsizlik bilan ilk bor yuzma yuz bo‘lgan asar qahramoni qalbida endi isyon g‘alayon qila boshladi. Bu qahramonni turmaga tiqqan zamondoshlariga nisbatan qasos o‘ti emas, balki uning o‘ziga, o‘z

---

<sup>40</sup> Хамдам У. Исён ва итоат. Роман. – Тошкент, 2005. – Б.3.

“men”iga, o‘z shaxsiyatiga qaratilgan isyon edi. Uni turmaga tiqqan hamqishloqlarini dog‘da qoldirib, yangicha hayot boshlashga ahd qildi. Bu zulmat qo‘ynidan chiqqan yorug‘lik, nur edi.

Alloh barcha narsani inson uchun yaratgan. Ota ham farzandlari uchun hech narsadan tap tortmaydi. Akbar ovqat so‘rab, arz qilgan bolalariga hamma narsani, noz-ne‘matlarni muhayyo qilish uchun safarga otlandi. Biroq, u yana adolatsizlik bilan yuzlashadi. O‘n ikki tonna deb ortilgan qovuni manzilga etib kelgach, sakkiz tonna chiqadi. O‘z akasi Nurmatning xiyonatidan ko‘ngli o‘ksiydi. Begona yurtlarda mafiya qo‘lida qolib ketadi. Shundan so‘ng inson uchun ato etilgan imkoniyatlarga erishish ham oson kechmasligini anglab etadi va taqdirga yozilgan yozuqqa itoat qilishga majbur bo‘ladi. Dunyo sirlarini anglash qiyinligidan xayolan ming bir ko‘chaga kirib chiqadi. Qahramon ruhiyatida ana shunday murakkab jarayonlar kechayotganini tasvirlash asnosida ikkinchi afsona naql qilinadi:

“Yaratilishning ikkinchi kuni boshlandi. Bunda Xudovand osmonni erdan ayirdi, gumbazni osmon, quruqlikni esa er deb atadi. Keyingi qator kunlarda erni makon tutib, ko‘kni yopinchiq etib o‘sadigan o‘simliklar, daraxtlarni dunyoga keltirdi, ko‘kni va erni to‘ldirib uchadigan, yuradigan gala-gala qushlar, to‘da-to‘da hayvonlarni yaratdi. Zulmat va nurning almashib turishi va olam uzra bir muvozanat bo‘lishi uchun ko‘kda quyosh, oy va yulduzlarni bor etdi. Va bularning hammasini xush ko‘rdi”<sup>41</sup>.

Yaratilishning ikkinchi kunida ro‘y bergan voqealar tasviri qahramonning aldanishi, hayvoniy fe‘lga ega kishilar davrasiga tushishi va ulardan qutulish yo‘llarini axtarish bilan barobar kechadi. Zulmat bilan nurning almashinishi, oynning o‘n beshi yorug‘u o‘n beshi qorong‘u holida kelishi nafaqat Yaratilish fitrati bilan bog‘liq, balki yaralmishlar ichida nisbatan mukammali hisoblangan insonning turfa fe‘lligi, u manfaat va qorin to‘ydirish ilinjida o‘zining oliy zot ekanligini unutib qo‘yayotganligining tafsilotlari kontekstida yaxlit mohiyat kasb etadi.

---

<sup>41</sup> Ҳамдам У. Исён ва итоат. Роман. – Тошкент, 2005. – Б.10.

Alloh odamzod uchun barcha imkoniyatlarni berib, uni begunoh qilib yaratdi. Asarda tasvirlangan Diana bilan Akbar esa taqdirga isyon qilishda davom etadilar. Diana, Larisa xola, Akbar va tabib qismatidan bir-biriga o'xshamas jumboqlar, xatoliklar, ruhiyatidagi chigal holatlarning barchasi, loydan yasalgan bandaning xatolari mahsuli edi. Bu dunyodagi barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan shaxslarning ruhiy holatini aks ettirishni istagan muallif ushbu ilohiy rivoyatni asarga olib kirish bilan o'z badiiy niyatidagi talqinni yana boyitishga erishgan: "Hamma narsa muhayyo bo'lgan edi: er va ko'k, suv va havo, hayvonot va nabotot... barcha-barchasi... Faqat bularning ustidan hokimlik qiladigan va eng muhimi, dunyoni, uning Yaratuvchisini idrok etadigan, anglab biladigan zot hali yaratilmagandi. SHunda Ollloh taolo o'zining shoh asari – Odamni o'z suratida, ilohiy shamoyilda tuproqdan yasadi-da, uning dimog'iga hayot nafasini puflab, jon ato etdi...

Yettinchi kuni esa Ollloh yaratishdan tindi. Chunki bu kunga qadar hal etilgan borliq Uning bilinishi va yodlarda mudom qolishi uchun etarli edi..."<sup>42</sup>.

Bu o'rinda adib tomonidan asarga singdirilgan rivoyat odamning yaratilishi to'g'risidagi antropogenik mif namunasining variantlaridan biri hisoblanadi. V.V.Ivanovning fikricha, "antropogenik miflar – yaratilish (shu jumladan, odamning ham yaratilishi) haqidagi asotirlar bo'lib, kosmogonik miflarning tarkibiy qismidir"<sup>43</sup>.

Olimning qayd qilishicha, dunyo xalqlarining er yuzidagi birinchi odam to'g'risidagi mifologik afsonalarida insonning tuproqdan u yoki bu daraxtdan yaratilganligi naql qilinar ekan. Masalan, Peruda yashovchi hindu qabilalari miflarida aytilishicha, birinchi odam palma daraxtining yong'og'idan yasalgan deyilgan. G'arbiy Sibir, Uzoq SHarq, SHimoliy Amerika xalqlarining miflarida ham ilk odam daraxtdan yasalganligi hikoya qilinadi<sup>44</sup>.

Turkiy xalqlar mifologiyasida ham ayni talqin mavjud bo'lgan. Har holda, ayrim daraxtlarni muqaddas bilish an'anasi, shuningdek, folklorda va xalq

---

<sup>42</sup> Xамдам У. Исён ва итоат. Роман. – Тошкент, 2005. – Б.14.

<sup>43</sup> Иванов В.В. Антропогонические мифы // Мифы народов мира. Т.1. – М., 1992. – С.87.

<sup>44</sup> Иванов В.В. Антропогонические мифы. – С. 87.

inonchlarida mavjud bo'lgan daraxt kulti shunday xulosa chiqarishga imkon beradi. Folklorshunos Sh.Shomusarovning fikricha, "O'rta Osiyo xalqlari islom dinini qabul qilishi va "Qur'oni karim", hadis, tafsir va boshqa manbalardagi islomiy asotirlarning bu hududda keng yoyilishi natijasida Odam Atoning yaratilishi va er yuzida insonning yashay boshlashi to'g'risidagi antropogenik afsonalarning syujetlari o'lka xalqlari folklorida ommalasha boshladi. Ana shu tarixiy-folkloriy jarayon natijasida o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotida Odamning yaratilishi to'g'risidagi antropogenik afsonalar silsilasi yuzaga kelgan. Islom mifologiyasining bevosita ta'sirida shakllangan o'zbek antropogenik afsonalarida Odam Atoning yaratilishi, odam yaratish uchun zarur bo'lgan tuproqning zamindan qarzga olinishi, Odam Atoga jon kirgizilishi, Odam Atoning qovurg'asidan Momo Havoning yaratilishi, ularning jannatdan quvilishi, Odam Ato bilan Momo Havoning er yuzidagi hayoti haqida hikoya qilinadi"<sup>45</sup>.

Shuningdek, yozuvchi Alloh hamma narsadan boxabarligini inson tabiatidagi yaxshilik ham yomonlik ham Allohga ayon ekanligini, biroq ana shu mutloq haqiqatni angalayolmagan inson gumrohligini davom ettirayotganligini ushbu ko'chirma bilan anglatgan. Odamzotga gunoh qilishdan tiyilish imkoni ham berilgan bo'lsa-da, u insonning o'z qismatiga isyon qilib, birgina ta'qiq etilgan narsa, ya'ni yaxshilik va yomonlikni anglash mevasini emaslikni buyuradi. Bu parcha Diana, Tabib va Akbarni gunohga etaklovchi ichki g'alayonni bosish uchun keltirilgan. Biroq, asar qahramonlari turli kasb, turli yosh, turli muhitdagi kishilar bo'lsa-da, ularning har qaysi o'z ichki dunyosi bilan yashayotgan, bir birini takrorlamaydigan odamlardir.

"Olloh taolo Odamning hech narsadan kam bo'lmay yashamog'i uchun Adan bog'ini bunyod etdi. Unga turli-tuman daraxtlar o'tqazdi, irmoqlar keltirdi. So'ng Odamni u erga qo'yib: "Sen bu bog'ning har bir daraxtidan eyavergin. Faqat yaxshi va yomonni bilish daraxtidan ema. Chunki undan eganing kuniyoq o'lasan", deb buyurdi..."<sup>46</sup>.

---

<sup>45</sup> Шомусаров Ш. Араб-ўзбек фольклори тарихий-киёсий таҳлили. – Тошкент: Фан, 2002. – Б.175.

<sup>46</sup> Ҳамдам У. Исён ва итоат. Роман. – Тошкент, 2005. – Б.23.

Muallif bu rivoyatni keltirish orqali qahramon hayoti o'rtasida o'ziga xos ko'prik quradi. Ana shu "ko'prik" vositasida inson o'z imkoniyatlari qay darajada behisoblighi-yu, qanchalik cheklanganligi o'rtasidagi hadni, chegarani bilishi zarur. Chunki imkoniyat – anglab olingan zaruratdir. Inson o'z imkoniga erk bersa, ta'qiqlangan narsalarning iste'moliga kirishsa, u o'z nafsini tufayli boshiga yangi savdolar ortirib olishi muqarrarligi eslatiladi. Biroq, beayb parvardigor deganlaridek, u har doim ham bunday "cheklanish" lar va "eslatma"larga quloq tuta bermaydi. Aqli "qilmagin" deb tayinlab turgan bir paytda nafsning ko'yiga kirgan inson bunday nopok ishlarga qo'l ura boshlaydi va tabiiyki, u o'z qilmishi uchun nafaqat qiyomatda, balki shu dunyoning o'zida ham jazoga mahkum etiladi. Qassos qiyomatga qolmaydi.

Bizningcha, bu asarda inson botiniy olamining turfa ko'rinishlari badiiy tahlil etiladi. Chunki asar voqealari bir necha yo'nalishda, rang-barang taqdirlar va xarakterlarning o'ziga xos ko'rinishlarini mahorat bilan yaxlit tizim holida tasvirlashga qaratilgan alohida-alohida hikoyalardan iborat bo'lib, bu hikoyalar taqdiri fojea bilan yuzlashgan shaxslar qismatining tafsilotidan iboratdir. Asarda tasvirlangan birinchi yo'nalish Akbar va uning ma'naviy dunyosi, ikkinchisi, Tabib va uning qismati, uchinchi yo'nalish Larisa xolaning fojeasi bo'lsa, to'rtinchi yo'nalish Diyananing axloqiy olamidir. Shuningdek, beshinchi yo'nalish ijtimoiy muhitning real tasviri va asarning to'laqonli chiqishi uchun xizmat qilgan rivoyat janrining roman syujetiga singdirilishi natijasida asarga olib kirilgan Odam Ato va Momo Havo qismati haqidagi islomiy afsonalardir. Bu yo'nalishlarning har biri o'ziga xos badiiy qiyofalar, obrazlar va ruhiyatlar to'g'risida alohida-alohida mavzularni tashkil etib, ularning o'q ildizi Akbar obrazi bilan mantiqiy bog'lanib turadi. Akbarning Tabib, Larisa xola, Diana va xotini Faridaga bo'lgan munosabatlarining tasviri asar syujetiga asos bo'lgan voqealar rivojini taraqqiy ettirishga xizmat qiladi.

Yozuvchi o'zining ilk yirik asari "Muvozanat"da ilgari surgan hayot va inson to'g'risidagi falsafiy qarashlarini "Isyon va itoat" romanida mantiqan davom ettirib, yanada takomillashtirgan. Adibning tasavvuricha, odamzod peshonasiga

bitilgan qismatni o'zgartirmoq uchun o'z hayotining ma'lum bir bosqichigacha taqdirga isyon qilib borar ekan. Darhaqiqat, inson o'z maqsadi yo'lida ne-ne ishlarga qo'l urmaydi, deysiz. Oxir-oqibatda uzoq davom etgan hayot yo'lining so'nggi sarhadlarida namoyon bo'lgan taqdirga, butun umr bo'yi unga yo'ldosh bo'lgan qismat yozg'usiga itoat etishga majbur bo'ladi.

Ulug'bek Hamdam tomonidan yaratilgan o'ziga xos adabiy qahramon tipining tabiati haqida yosh olim M.Pirnazarova shunday yozadi: "Ulug'bek Hamdam inson zotining kuchli va ojiz jihatlarini xilma-xil nuqtai nazarlarda aks ettiradi. Ayniqsa, bashariyatning ilk tarixi bilan qiyosiy tahlil etishda ilohiy mazmundagi kiritmalardan foydalanish ijobiy natijalar bergan. Odam zotining tavba, anglash, his etish yo'lini o'tib itoatga kelishi, Haq yo'ldagi bandasining hidoyat qilinishi bilan bog'liq ilohiy-falsafiy fikrlar birmuncha hayajonli o'y-mulohazalar orqali Akbar obrazi misolida ilgari suriladi"<sup>47</sup>.

Taqdir izmiga kimdir tez, kimdir kechroq itoat qiladi. Jumladan, Akbarning xotini Farida o'z qismatini qishloqda yashash va ishlashda, deb biladi. U o'z taqdiriga itoatkor shaxs. SHu bois, o'zi bilan eri o'rtasidagi munosabatlarda kechayotgan o'zgarishlarga ham tabiiy hol deb qaraydi. Akbar esa, aksincha, qalbidagi taqdirga nisbatan ko'tarilgan isyon sabab qishloqqa sig'maydi va oxir - oqibat u erdan qochib, shaharga keladi. Biroq, nafaqat o'z yashash manzili, balki o'zligidan ham qochishga uringan Akbar bu erda ham ruhiy taskin topa olmaydi. Fohisha ayolga ishq tushib, unga bo'lgan munosabati o'tkinchi hislar aldovi ekanini bilib tursa-da, buni chin muhabbat sifatida tan olishi ham juda qiyin kechadi. Uzoq sukunatdan keyin tan olgan, ya'ni sevgan ayoli bilan uzoq yillar nikohsiz yashaydi va muhabbatlaridan bir nishona yoki farzand ham qoldirmay, to'satdan qishloqqa qaytib ketadi. Adib Akbarning mana shu qaytishini uzoq muddatdan so'nggi taqdir izmiga itoat, ya'ni qismat sifatida tasvirlaydi. Bizningcha, bu asarda ikki ayolni ham o'ziga ipsiz bog'lay olgan narsa – bu hozirgi zamon kishisining ma'naviy olamidagi inqiroz, ya'ni xudbin shaxsning hayot yo'lidir. CHunki oilaviy hayoti davomida ikki ayoldan bittasiga ham o'zini

---

<sup>47</sup> Pirnazarova M.M. Hozirgi ўzbek romanlarda uslubiy izlaniшlar: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2006. – Б.105.

fido qilolmagan, ularga na moddiy va na ma'naviy ko'mak berolmagan Akbarni faqat o'z orzu-istaklari "qulligi"da yashagan xudbin odam deyish mumkin. Garchi ma'lum darajada aqlli, mehribon, sermulohazakor, bir fohisha ayolning to'g'ri yo'lga tushishiga sababchi bo'lgan fidoiy odam bo'lsa-da, cheksiz-chegarasiz ichki iztiroblar girdobida umr o'tkazadigan qahramon aslida oila va farzand, qolaversa, haqiqiy muhabbat oldidagi mas'uliyat va burchni unutgan shaxsdir.

Diana esa ma'naviy-axloqiy jihatdan balchiqda turgan bo'lsa-da, jisman pok olamga, oftobga intiladi. Go'zallikka oshuftalik, mehr va muhabbatga tashnalik uni o'zi uchun begona bo'lgan muhabbat qo'rg'oniga beixtiyor olib kiradi. U Akbarni sevib qolgach, ya'ni aslida ko'ngil qo'yib qolgandan so'ng o'zining tanlagan hayot yo'lidan qaytib, o'rgangan turmush tarzini o'zgartirishga o'zida kuch topadi. Adabiyotshunos D.To'raev Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanini tahlil qilar ekan, asarda Diana ilohiy go'zallikni o'tkinchi mol-dunyo, boylik, zeb-ziynatda yashash uchun qurbon qilganligi, bunday noshukurlik Xudoga qarshi, taqdirga qarshi isyon ekanligi, bu isyon olovi go'zallik sohibasini tubanlikka uloqtirgani kabi hayot falsafasi muammolari bilan bog'lanadi"<sup>48</sup>, – deb yozgan edi.

Darhaqiqat, olim aytganidek, Dianada axloqan poklanishga nechog'lik urinmasin, uning ichidagi o'ynab-kulib yashashga bo'lgan botiniy istaklar batamom yo'qolmaydi. Natijada o'zining sevgan kishisi bilan uzoq yillar birga yashasa-da, farzand ko'rishga, oila qo'rg'onini mustahkamlashga harakat ham qilmaydi. Akbarning qachonlardir ketib qolishini sezib, o'sha kunning kechroq kelishini kutib yashaydi. "Seni jununingdan qo'rqaman", – deb etirof etsa-da, o'z baxti uchun, kelajagi uchun kurashmaydi. Hatto Akbarning ketishini tabiiy holdek qabul qiladi. Natijada Larisa xolaning fojeaviy qismatidan saboq chiqara olmagan Diana bir olam xotiralar, sevinchu qayg'ular, alamli iztiroblar iskanjasida yoshi o'tgan damda yolg'iz qoladi. Diananing muhabbat qudrati vositasida o'z turmush tarzini o'zgartirishi va baxtli bo'lishga intilishi uning taqdir yozmishiga qarata qilgan isyoni bo'lsa, Akbar ketganidan so'nggi yolg'izlik va bo'm-bo'sh ko'ngil

---

<sup>48</sup> Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. Романчилигимизнинг янги уфклари. – Тошкент: Янги аср авлоди, – 2004. – Б.34.



iztiroblariga to'la hayotga ko'nikishi uning qismatga itoatini anglatadi. Chunki asar mantig'idan anglashiladiki, uning yoshligini – o'yin-kulgida, keksaligini esa yolg'izlikda o'tkazishi har ikki holatda ham tabiiy holdek bo'lib ko'rinadi.

Qolaversa, ma'naviy va axloqiy jihatdan ojiz bo'lgan Diana oilali erkak bilan ko'ra-bila turib uzoq yillar nikohsiz aysh-ishratga berilib, sayru sayohat bilan umrguzaronlik qiladi. Natijada ma'naviy tubanlik oqibatida etilib kelayotgan fojea kun sayin uni o'z domiga tortib boraveradi. Oxir-oqibatda, garchi buzuqlik girdobidan chiqib, ancha vaqt bir erkak bilan oila qurib yashagan bo'lsa-da, baribir axloqiy jihatdan tubanlashganligini isbot qiladi.

Diananing yoshligini eslatadigan bir tarzda yashab umr guzaronlik qilgan Larisa xola esa keksayganida bir og'iz shirin so'z, mehr-muhabbat va e'tiborga zor bo'lib qoladi. Bola tug'sam navnihol qaddu qomatim buziladi, bola tarbiyalab, katta qilishdan ham muhimroq ishlar bor bu hayotda, deb farzand ko'rishga rozi bo'lmagan, bolali bo'lganligi uchun o'z opalarining ustidan kulgan va hatto, ular bilan qarindoshlik rishtalarini ham uzgan Larisa xola keksayganida qadrdon o'rtoqlaridan birin-ketin ayrilib, kunlarni yolg'iz va ma'nosiz kechirishga mahkum bo'ladi. U bunday yashashdan zerikadi, hatto o'limini kutib charchagan kampir o'z joniga qasd ham qiladi. Yozuvchi ta'biri bilan aytganda, "Larisa xola kimga qo'ng'iroq qilmasin, bu dunyoni tark etgan edi". O'z umrini ma'no-mazmunsiz bir tarzda kechirgan keksa bir kampir hayot yo'lidan saboq chiqarar ekan, Diananing taqdirida o'z kechmishini ko'rgach, unga o'zining buguni va kelajagini ravo ko'rmay, pand - nasihatlar qiladi.

Yozuvchi, qahramon taqdiri va qismati muammosini ma'naviy-axloqiy qarashlar tizimiga olib chiqar ekan, "Odamzod eshitgani va ko'rganiga hamisha ham amal qilavermaydi" degan mantiq Odam Ato va Momo Havodan qolgan meros ekanligini kitobxonga eslatib turish maqsadida, badiiy tasvir qatlamlariga ular to'g'risidagi afsonani izchillik bilan singdirib boradi. U o'z nazdida "inson juft bo'lib yashashi kerak" degan hayotiy haqiqatni tabibning taqdiri misolida badiiy tahlil qiladi. Chunki tabib xotining xiyonatidan so'ng, yolg'iz yashashga ahd qiladi. Taqdirni qarangki, hamisha odamlarga yaxshilik qilgan, shogirdlariga mehr

qo‘ygan, o‘z kasbiga sodiq bo‘lgan imon-e‘tiqodli bu inson joynamoz ustida ikki bukilib o‘lib qoladi. Yaqinlariga qilingan nasihatlar esa qog‘ozga bitiladi, xolos.

Adib o‘z asaridagi Tursunboy jontalash obrazi orqali odamgarchilik va mehr-oqibatning mehnatkashlik bilan o‘rin almashganligini ko‘rsatishga harakat qilgan. Natijada insonning shaytonga ergashib hayotiy haqiqat me‘yorini buzgan hamda uning boshqa jonzotlardan farqi ham aql va tafakkur sohibi ekanligi bilan belgilanishini yodidan ko‘targan inson oxir-oqibat gumrohga aylanadi, degan mantiqiy xulosaga kelgan.

Romanga olib kirilgan mifologik afsonalar ham ma‘lum ma‘noda asar mohiyatini ifodalovchi ana shu hayotiy mantiqning davomiyligini ta‘minlashga xizmat qilgan bo‘lsa-da, ba‘zi joylarda dialoglar cho‘zilib ketgandek taassurot tug‘diradi. Asarda iblisning xiyonatkor bo‘lishi va odamni ta‘qiqlangan olmadan eyishga da‘vat etib, gunohga qo‘l urdirishi haqidagi rivoyatdan so‘ng adib birgina jumla yozgan: “Biroq tabib Akbarga javob yozmadi...” Ushbu jumlaning mohiyati va badiiy to‘laqonliligi rivoyatdagi mantiqning bevosita davomi sifatida taassurot qoldiradi. Bu jumlada shaytonning yo‘liga yurgan bandalarning gunohkor bo‘lishi va Ollohga shirk keltirishi anglatiladi. Ko‘rinib turibdiki, tabib Akbarni oilasiga xiyonat qilganlikda va o‘zining pokiza hayot yo‘lini gunoh ishlar sari burib, xato yo‘lni tanlaganlikda ayblamoqda.

Yozuvchi bir o‘rinda “insonning bandaligi shundaki, dard chekkanda qo‘lga kiritgan saboqlari darddan forig‘ bo‘lganda esidan chiqadi. Shuning uchun bu dunyoda hamma narsa takrorlanib kelaveradi, jumladan, xatolar ham...” deb yozadi. Asarda adibning bunday “olimona tafakkuri” aks etgan o‘rinlar anchagina uchraydi. Chunki u asarda nafaqat yozuvchi, balki hikoyachi, xolis kuzatuvchi, fikr yurituvchi qahramon sifatida ham ko‘rinadi. Asarning so‘ngida Akbar ustozidan qolgan xat bilan tanishar ekan, o‘z taqdiriga itoat qilganligini tan oladi.

Yozuvchi yolg‘izlik faqat Ollohga xosligini, faqat yaratganning o‘zigina inson taqdirini o‘zgartirishga qodir ekanligini jamiyatdagi turli toifadagi shaxslar, turli kasb egalari, turli xarakterli kishilar obrazining talqini orqali ko‘rsatishga harakat qilgan, Uning qahramonlari orasida jurnalist, tabib, qariya, fohisha,

dehqon, tadbirkor, yosh qizcha singari turli tipdagi obrazlar mavjud. Adib bu personajlarning hayoti misolida inson ko‘pincha o‘z hayotini o‘zgartirish maqsadida taqdirga qarshi isyon qilsa-da, va oxir-oqibat baribir qismat yo‘rig‘iga itoat qilishini, bo‘ysunishini qalamga olgan.

U.Hamdami ijodini kuzatganda shunga amin bo‘lamizki, adibda yolg‘izlik fojeasini tasvirlashga moyillik kuchli. Yozuvchi inson dunyoga yolg‘iz keladi, yolg‘iz ketadi, gunoh va savobni ham yolg‘iz o‘zi qiladi, uning peshonasiga bitilgan yozig‘i ham yolg‘iz uning o‘ziga tegishli bo‘ladi, degan falsafiy qarashni ilgari suradi. SHu bois, uning “Yolg‘izlik” qissasi bilan boshlangan “yolg‘izlik fenomeni”ning badiiy talqini adibning “Muvozanat” romanida yangi bosqichga ko‘tarilgan: asar qahramonlarning har biri o‘z dunyosi, o‘z sir-asrori bilan yashashini tasvirlash orqali adib “yolg‘izlik fenomeni”ning shaxs qismatidagi o‘rni va roli muammosini mantiqiy davom ettirgan. Yolg‘izlikning hayotiy talqini “Isyon va itoat” romanida ancha izchil, tabiiy va ishonarli tasvirlarda berilgan. Ayniqsa, har ikki romanda ham adib badiiy niyatining amalga oshishida mifologik tasvir imkoniyatlari va xalq rivoyatlaridagi epik talqin usuliga keng o‘rin berilishi qahramonlar xarakterining to‘laqonli chiqishini ta‘minlagan. Bu, albatta, yosh yozuvchi qalamining charxlanib borayotganligi va uning o‘ziga xos badiiy olami hamda ijodiy uslubi shakllanishda davom etayotganligini ko‘rsatadi.

Omon Muxtorning "Ayollar mamlakati va saltanati" deb nomlangan romanida turli holatlarda insonning hayoti, tafakkuri va shaxsiyatiga reallik va xayolot kesmasida har tomonlama yondoshiladi. Bu asar matni folklorga xos an‘aviy motivlarni syujet tizimiga singdirish nuqtai nazaridan ancha puxta ishlangan. Adabiyotshunos olim U.Normatov mazkur roman haqida fikr yuritarkan, shunday xulosaga keladi: “Roman muayyan doira bo‘ylab aylanuvchi, betinim takrorlanib turuvchi o‘ziga xos sirli-sehrli musiqiy ohang bilan yo‘g‘rilgan, nasriy ifoda va she‘riy satrlar omuxtaligi, nasrdan-she‘rga, she‘rdan nasrga erkin ko‘chish, o‘zga shoirlar she‘riy satrlaridan erkin foydalanish, tarixiy hujjatlarga murojaat, xalq og‘zaki ijodi namunalari–rivoyat va ertaklar syujetining qayta hikoyasi, xususan, "Bir yolg‘onda qirq yolg‘on" ertagi bayoni – bular asar

matniga ajib fayz, ko‘pohanglilik baxsh etgan... Omon Muxtor romanlari shakl-shamoyili, syujet tuzilishi, ifoda tarzi jihatdan yangicha"<sup>49</sup>.

Darhaqiqat, ushbu asarni mutoala qilgan kishida bamisoli ertak o‘qigandek taassurot qoladi. Chunki, unda tasvirlangan voqealar kitobxonni sehrli – fantastik ertaklarga xos g‘aroyib voqealar sari etaklaydi. Asarda ayol deya atalmish sirli va sehrli xilqat haqida, uning o‘ziga xos fazilatlari-yu, jumboqlarga to‘la ichki dunyosi xususida gap boradi. Chunki erkak va ayol, obrazli ibora bilan aytganda, “ikki yorti bir butun” deya ta’riflangan zotlar hamisha bir-biriga intilib, bir-birini to‘ldirib, hayotda hamroh bo‘lib yashashadi. Ayolning nazokati, o‘ziga xos nozik didi erkakning qobiliyatlari-yu, imkoniyatlarini hamisha sartarozi qilib, baholab turadi. Shu bois, mazkur asarda xalqimiz orasida ko‘p ishlatiladigan purma’no hikmat – "Erni er qiladigan ham xotin, qaro er qiladigan ham xotin" degan maqolning mohiyati butun asar davomida bamisoli o‘q chiziq bo‘lib o‘tib, voqealar talqinining markazida turgandek ko‘rinadi. Qahramon ana shu fikrning haqligini isbotlash uchun xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, xususan, doston, ertak, maqol va rivoyatlardan o‘z badiiy niyatini amalga oshirishda keng ko‘lamda foydalanadi.

Adibning asosiy badiiy niyati ayolning jamiyat hayotidagi mavqei hamda erkak kishi faoliyatidagi o‘rnini romanga xos bo‘lgan keng epik planda talqin qilishdan iborat edi. Asar qahramoni Olim o‘z uyidan (ya’ni aslida ayol iskanjasidan) sirg‘alib chiqib, o‘z ayolining ruhiy xurujlari qurshovidan qutulib, biroz erkin bo‘lish maqsadida o‘zga bir ayolning huzuriga oshiqadi. Lekin tez orada bu ayol ham u hayotda ko‘rgan-bilgan, uchratgan boshqa xotinlardan sirayam farq qilmasligini his eta boshlaydi. SHunda Olim beixtiyor quyidagi so‘zlarni eslaydi: "Erni er qiladigan ham..? Bu kimdan, qachon chiqqan?! Bu – ilk qarashda, ayollarni sal kamsitib – tergab aytilganga o‘xshaydi-ku... o‘ylab ko‘rsangiz. Seni yo u yoq (er), yo bu yoq (qaro er) qiladigan xotin bo‘lsa! – demak, sening taqdiringni hal qiladigan – XOTIN (AYOL) ekanda!"<sup>50</sup>

Aslini olganda Omon Muxtorning bu asari ana shu fikrlarni baralla aytish

---

<sup>49</sup> Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б.59-60.

<sup>50</sup> Омон Мухтор. Аёллар мамлакати ва салтанати. – Тошкент, 1997. – Б.79.

(katta harflar bilan) uchun yozilgandek ko‘rinadi. Lekin asardagi voqealarni o‘zaro uyg‘unlashtirib, yagona semantik markazga birlashtirib turuvchi o‘q chiziq aslida bu emas. Romanda ayol zotining o‘ziga xos ruhiy dunyosi tahlil qilingan, ayol qalbining, ayol tafakkurining siru sinoatlari sarqalam qilingan. Uning ichki kechinmalari olami va tafakkur tarzini atroflicha yoritishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan adib o‘zining badiiy niyatini to‘la amalga oshira olish uchun ayol timsoliga mengzash mifologik obrazlar talqinini asarga singdirib yuborgan. Jumladan, asar syujeti Farishta yoki Alvastining mifologik obrazi vositasida yanada to‘laqonli chiqqan. SHu bilan birga, asarda tasvirlangan voqealar hayotda ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan yoki inson xayolotidagina sodir bo‘ladigan holatlar ekanligiga o‘quvchini to‘la ishontirish uchun muallif o‘rni bilan matnga xalq dostonlari yoki ertaklari syujeti, motivlari va obrazlarini singdiradi. Asar qahramonining tilidan hikoya qilinadigan voqealar kitobxonga tanish, xalq orasida mavjud bo‘lgan qadimiy inonchlardan iborat bo‘lganligi uchun ham juda hayotiy, tabiiydir.

Asar qahramoni Olim – xayolot odami. U o‘zidan oldingi sinfda o‘qigan Alpomish degan yigitni eslar ekan, beixtiyor “Barchinoy to‘qson qalmoq polvonlari o‘rtasida talash bo‘ldi. U Alpomishning Boysundan kelib, shartlarini bajarib, uni ozod etib, olib ketishini kutar edi...” deb o‘y surish bilan birga ayolning er kishiga ishonishi va suyanishi, erkak kishi esa ayol uchun har narsaga tayyor bo‘lishi lozimligiga sha‘ma qiladi. SHu bois, asarda ayolga xos jihatlarning chuqur badiiy tahlil etilishi orqali bugungi ayolning jamiyat hayoti va oiladagi o‘rni ham eslatiladi.

Adib Olim obrazi orqali jamiyatga nazar tashlar ekan, ayol zotiga xos xislatlarning turfa shakllarini ko‘rsatish natijasida ayollarni uch toifaga bo‘lib talqin qilgan. Bu talqin faqat uchta so‘z orqali katta harflar bilan ifodalangan bo‘lib, o‘quvchi bu o‘rinda adibning badiiy niyatini anglashga unchalik ham qiynalmaydi. Qahramonning esa boshi qotgan: chunki uning hayotida uchragan ayollarning murakkab, chigal taqdirlari, o‘y-xayollari, dunyoqarashi, qiladigan ishlariyu, o‘ziga, jamiyatga munosabati va fikrlari uni qiziqtiradi. SHularni

bilishga, anglashga intiladi. Asar qahramoni Olim ayollarni uch toifaga bo‘ladi va ularni "Alvasti", "Farishta", "Oddiy ayol" deb ta’riflaydi. Bu ta’rifni asardagi ba’zi voqealar orqali to‘ldirishga urinadi: “Bu (Ayol)lar ODAM naslidan emas, PARImi, ALVASTImi bo‘lishsa-chi?!..

Parilardan-ku, ziyon kam, deyishadi. Alvastilar yomon! Xonumoning kuyadi! U, Parilar, Alvastilar, Jinlar, Devlar, biz yashagan OLAMdan boshqa Olamlar borligiga esa shubhalanmas edi! Bolalikdan qattiq ishonardi!

Ba’zan unga har qanday Ayolning o‘zi – boshqa OLAMga mansub bo‘lib ham tuyular edi! Hozir ko‘rganlari bunga dalolatdek edi”<sup>51</sup>.

Adib bu o‘rinda qahramon ruhiy olamiga xos xususiyatlarni yoritishda o‘zbek folklorining bir qator an’anaviy personajlari – pari, alvasti, jin, dev obrazlari bilan bog‘liq mifologik tasavvurlardan foydalangan. Bu personajlar nomi va talqinlarining asar matnida keltirilishi adib badiiy niyatini amalga oshirishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, har biri alohida mohiyatga ega.

Ma’lumki, xalq orasida pari bilan bog‘liq ikki xil e’tiqodiy qarash mavjud: birinchi tip tasavvurlarga ko‘ra, “pari” o‘zbek folklorining eng qadimiy an’anaviy mifik obrazlaridan biri bo‘lib, ertak va dostonlarda epik qahramonga oshiq bo‘lib, turmushga chiqadigan; dev, ajdaho va boshqa epik raqiblar tomonidan o‘g‘irlab ketilgan narsani izlab topishda qahramonga ko‘maklashadigan; qahramonga maslahat berib, homiylik qiladigan go‘zal qiz ko‘rinishidagi xayoliy- mifologik obrazdir. Bu mifologik personaj o‘zining benihoya chiroyliligi, sehrli – magik xususiyatga egaligi, o‘z shaklu shamoyilini o‘zgartirib, turli xil jonzotlar (qush, ohu, ilon va h.k.), inson (go‘zal qiz va yigit) va narsa-hodisalar (cho‘g‘, olov, gul, suv) ko‘rinishida namoyon bo‘la olishi bilan boshqa asotiriy personajlardan farqlanib turadi. Pari obrazi O‘rta Osiyoda yashagan qadimgi odamlarning qut-baraka va hosildorlik baxsh etuvchi ma’budalar to‘g‘risidagi mifologik tasavvurlarining tadrijiy rivoji natijasida kelib chiqqan<sup>52</sup>.

---

<sup>51</sup> Омон Мухтор. Аёллар мамлакати ва салтанати. – Тошкент, 1997. – Б. 94.

<sup>52</sup> Бу ҳақда қаранг: Бертельс А.Е. Пари // Культура и искусство народов Средней Азии в древности и средневековье. – М.: Наука, 1979. – С.125-130; Қаюмов О. Пари ҳақидаги халқ қарашлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – № 1. – Б.43-45; Ўша муаллиф. Пари ва амазонка образлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. – №2. – Б.52-55.

Pari to'g'risidagi mifologik qarashlarning ikkinchi tipi bevosita "Avesto"da yovuz kuchlar sirasiga mansub, deb tasavvur qilingan "pairika" obrazi bilan aloqadordir. Bunga ko'ra, parilar odamlarga yomonlik qiluvchi g'ayrioddiy kuch tarzida talqin qilinadi<sup>53</sup>. Xalq orasidagi "pari tekkan", "pari qoqqan" kabi iboralar orqali pari yo'liqqani, ya'ni bu g'ayrioddiy mavjudotlar bilan ko'rishgani uchun ruhiy xastalikka chalingan bemorlar nazarda tutiladi. Ayniqsa, suv parilari ana shunday yovuz mavjudot sifatida tushuniladi. Xalq qarashlariga ko'ra, suv parilari daryo, ariq, ko'l, quduq, chashma kabi suv havzalarini o'zlariga makon qilishar ekan. Ular go'zal qizlar ko'rinishidagi xayoliy mavjudotlar bo'lib, suv bo'yiga kelgan kishini ismini aytib chaqirar va suvga g'arq qilar emish<sup>54</sup>. Bunday mifologik tasavvurlar o'zbek folkloridagi afsona, ertak va demonologik hikoyalarda ham o'z ifodasini topgan. Masalan, afsonalardan birida aytilishicha, o'tmishda kanallarda suv to'lib oqqan paytlarda suv parilari qurbonlik talab qilib, ayrim odamlarni nomini aytib chaqirganlar. Natijada, bu odamlar suv bo'yiga borishgan va kanalga tushib, cho'kib ketib halok bo'lganlar. Romanda ham ayolning vaziyatga qarab turli qiyofaga kirishi, ya'ni go'zal yuzli parivash holatida namoyon bo'lgani holda ana shu malohat ostiga gohida yovuzlik yashiringan bo'lishi ham mumkinligi ma'nosi mazkur mifologik tasavvurlar asosida talqin qilingan.

Turkiy xalqlar mifologiyasi talqinicha, "ziyoni kam"roq deya tasavvur qilingan parilardan farqli o'laroq, g'oyat xunuk, badbashara va badfe'l ayol sifatida tasavvur qilingan alvasti obrazi – yovuz kuchlar toifasiga kiradigan personaj sanaladi. Folklorshunos O.A.Xalipaevaning yozishicha, "alvasti ayol ko'rinishida tasavvur qilinadigan yovuz mifologik obraz bo'lib, asosan, homilador va chillalik ayollar hamda chaqaloqlarga xavf solar emish. U sochlari paxmoq, o'zi juda xunuk, emchaklari osilib ketgan qari ayol ko'rinishida tasavvur qilingan"<sup>55</sup>. O'zbeklarning mifologik qarashlariga ko'ra, alvasti yangi tug'ilgan chaqaloqqa o'z

---

<sup>53</sup> Басилов В.Н. Пари // Мифы народов мира. Т.2. – М., 1992. – С.286.

<sup>54</sup> Қаюмов О. Сув париси билан боғлиқ халқ қарашлари // Адабиёт гулшани. Илмий тўплам. – Тошкент, 1999. – Б.17-23.

<sup>55</sup> Халипаева О.А. Кумыкская мифология и ее турецко-азербайджанские параллели // Turkolog. Тюркологические публикации. <http://turkolog.narod.ru/>

ko'kragini tutsa, o'sha chaqaloq nobud bo'lar emish. SHuning uchun ilgarilari ayrim tajribali doya momolar chaqaloq tug'ilishi bilan uning og'zini o'z jimjiloqlari bilan silab qo'yadilar. SHunday qilinsa, alvasti unga xavf sola bilmas emish. Badbashara ayol suratida tasavvur qilinuvchi bu mifologik obraz ayrim manbalarda "mortuv", "sariq qiz" deb ham ataladi<sup>56</sup>.

Xalqimiz orasida keng tarqalgan mifologik afsonada aytilishicha, alvastiga yo'liqqan kishi darhol uning uzun sochlaridan o'rab tutib olishi kerak emish. Ana shunda u odamga qarata "Tila tilagingni!" – der ekan. Bunday paytda alvastidan tilining tagida saqlab yuradigan tangasi yoki kitobchasini berishni so'rash kerak, ana shunda alvasti "etti pushtingga ziyon etkazmayman" deb qasam ichar emish. Aks holda, alvasti o'zi yo'liqqan kishiga zarar etkazmasdan qo'ymas, alvastidan ziyon topgan kishilarga nisbatan "Falonchini qora bosibdi" degan ibora qo'llanilarkan.

Mifologik talqinga ko'ra, o'zining funksiyasi, ko'rinishi, insonga munosabati va maqsadi bilan farishtadan farqlanib turadigan alvastining yovuz asotiriy tip sifatidagi xususiyatlari romanda qahramon taxayyulida tug'yon urayotgan "ayol" obrazining sifatlarini ko'rsatishga bo'ysundirilgan. Alvasti obrazi folklorda yovuz kuch timsoli o'laroq talqin qilingani bois, adib qahramoni "alvastiga yo'liqqan kishining xonumoni kuyadi", – deydi.

Adib qo'llagan "jin" obrazi ham o'zbek mifologiyasida "yovuz kuchlar olami"ga taalluqli demonik personajlardan biri, deb tushuniladi. Xalqimizning mifologik tasavvurlariga ko'ra, jinlar g'ayritabiiy xususiyatga ega bo'lgan demonologik personajlardan biri bo'lib, ular odatda odamlar ko'ziga ko'rinmaydi. YOng'oq, jiyda, turang'i kabi daraxtlar o'sadigan joylar, kultepalar, axlatxonalar, tashlandiq xarobalar, kimsasiz choldevorlar, eski qabristonlar, mol so'yilgan joylar, qari tut yoki gujum daraxtlarining tagi ularning asosiy makoni deb qaralgan. Jinlar echki, mushuk, qurbaqa, uchqun, (olov), kuchuk bolasi va odam ko'rinishida namoyon bo'lar emish<sup>57</sup>.

---

<sup>56</sup> Басилов В.Н. Алвасти // Мифы народов мира. Т.1. – М., 1992. – С.58.

<sup>57</sup> Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001. – Б.60.



Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida "chiwi" deb ataluvchi jinlar to'g'risida quyidagi afsonani bayon qiladi: "chiwi – bir toifa jinlar nomi. Bu shundayki, ikki guruh turklar bir-birlari bilan urishadi. Urushdan oldin har qaysi guruh yurtida yashovchi jinlar o'z yurtlaridagi odamlarga ergashib, bir-birlari bilan jang qiladilar. Qaysi yurt jinlari engsa, ertasi o'sha yurt shohi g'alaba qiladi. Qaysi yurt jinlari engilsa, o'sha yurtdagi shoh ham engilgan hisoblanadi. Jang qiluvchi guruhlar askarlari jinlar o'qlari tegishidan qo'rqib, chodirlarga kirib yashirinadilar. Bu turklar orasida tarqalgan urf-odatdir"<sup>58</sup>.

O'zbeklarning "jin" obrazi bilan aloqador mifologik tasavvurlarining takomillashishida "Qur'oni karim"dagi oyati karimalar ham muhim rol o'ynagan. Islomiy rivoyatlarga ko'ra, «jinlar olovning yolqinidan yaratilgan ko'zga ko'rinmas mavjudotlardir. Insoniyatni saodatga etaklovchi payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom odamlar bilan bir qatorda jinlarga ham payg'ambar qilib yuborilgandir. SHu bois, jinlar toifasiga mansub mavjudotlar orasida Oллоhning haqligiga iymon keltirganlari ham, aksincha, jaholatda qolib ketganlari ham bor ekan"<sup>59</sup>.

"Qur'oni karim"dagi yigirma sakkiz oyatdan iborat "Jin" surasining 11-oyatida jinlar tilidan "Albatta, bizlarning oramizda yaxshilar ham bordir va (shuningdek) oramizda undoq emaslar (ya'ni yomonlar) ham bordir", – deyilganligi ham shu fikrni tasdiqlaydi<sup>60</sup>.

Adib qo'llagan "jin" obrazi ham o'zbek mifologiyasida "o'zga olam"ga taalluqli personajlardan biri deb tushuniladi. Xalqimizning mifologik tasavvurlariga ko'ra, jinlar g'ayritabiiy xususiyatga ega bo'lgan demonologik personajlardan biri bo'lib, ular odatda odamlar ko'ziga ko'rinmaydi<sup>61</sup>.

Xalq orasida azaldan keng tarqalgan mifologik tasavvurlar tizimining an'anaviy personajlari hisoblangan "pari", "alvasti", "jin", "dev" haqidagi rivoyat va ertaklar so'zlab beriladi. Biroq, asarda tasvirlangan holat jamiyatdagi ba'zi bir ayollarning o'ziga xos sifatlarini ko'rsatishga qaratilgan. Inson farzandi har

---

<sup>58</sup> Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент, 1960. 1-жилд. – Б. 244.

<sup>59</sup> Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001. – Б.61.

<sup>60</sup> Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. – Тошкент: Чўлпон, 1992.

<sup>61</sup> Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001. – Б.60.

jihattan to'kis, mukammal bo'lmaganidek, ayol zotining xislatlari ham biryoqlama bo'lishi ishonarsiz hol. Ayrim hollarda murakkab xilqat hisoblanmish bu zot asar qahramoni ajratib ko'rsatgan har uchala toifaga mansub ayollarga xos xislatlarni ham o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi yoki ana shu xususiyatlardan ayrimlariningina sohibi sifatida ko'zga tashlanishi mumkin.

Chunki ayol mehri, muhabbati, sadoqati uni farishta maqomiga ko'targan bo'lsa, uning qahrli va nafratli qiyofasi ko'zingizga alvastidek ko'rinishi mumkin. Qahramon oddiy insonlarda mavjud bo'ladigan jamiki xislatlarni uchinchi toifaga mansub ayollarda ko'rgani bois, oddiy insoniy tuyg'ular egasi, ya'ni hayotiy ayol haqidagi fikrlarini ana shu uchinchi tipga mansub ayollar obrazida mujassamlashtirgan. Yozuvchining ayol zotiga bo'lgan hurmati va samimiy munosabati asarning g'oyaviy yo'nalishini boshqa o'zanga etaklaydi.

Yozuvchi xalq og'zaki badiiy ijodidagi asriy qadriyatlarining o'ziga xos badiiy talqini orqali ayolning sehrli va sirli kuch sohibasi ekanligini ko'rsatishga, erkak kishi esa unga beixtiyor bo'ysunishi tabiiy bir hol ekanligini dalillashga, qolaversa, ana shu nozik va ayni chog'da, sirli xilqatning mohiyatini ochib berishga, uning g'aroyib olamini inkishof etishga harakat qiladi. Lekin adibning ana shu badiiy niyati asarda to'liq ochib berilgan, deb bo'lmaydi. Chunki ba'zi bir o'rinlarda yozuvchining fikrlari tugallanmay qolgandek, ya'ni fikrlar ochqichini topish o'quvchi zimmasiga yuklatilgandek taassurot uyg'otadi, nazarimizda. Bu orqali o'quvchi asarning echimi haqida o'ylashga, fikr yuritishga, voqealar talqinining mohiyatini o'zicha tahlil etishga majbur bo'ladi. Adib esa buni go'yo tabiiy bir holdek qabul qiladi va asar voqealari rivojini ikkinchi o'q chiziq tomonga burib yuboradi. Bunday paytda adibning ikkinchi o'q chiziq bo'ylab borishi, ya'ni badiiy tasvir yo'nalishining bu xildagi o'zgarishi nafaqat yozuvchini, balki o'quvchini ham chalg'itadi.

Voqealar rivojining bu tarzda keskin burilishi o'quvchining adib aytmoqchi bo'lgan fikrlarni ilg'ashi, asarning tub mohiyatini anglashini qiyinlashtiradi. Natijada yozuvchining ko'zlagan badiiy niyati boshqacha bir ko'rinishda davom ettiriladi va boshqacha, kutilmagan tarzda yakun topadi. Aslida esa, bunday

“kutilmagan echim” unchalik ham ishonarli chiqmagan va asarga majburan yopishtirilgandek taassurot qoldiradi. Xususan, adibning iste’dodli shoira Nodira siymosini gavdalantirishga harakat qilishida ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin. Asarda qahramonning Nodira shaxsiyatiga qiziqishi aslida yozuvchining unga bo‘lgan o‘zgacha mehri, hatto bu ayol haqidagi tarixiy fakt hamda ma’lumotlardan yaxshigina xabardor bo‘lishga intilishi mazkur romanning syujet tizimiga Nodira obrazining olib kirilishiga sabab bo‘lgan. Adib Nodira bilan Umarxon o‘rtasidagi muhabbatni tasvirlash jarayonida mashxur bir rivoyatni romanga olib kiradi. Bu o‘rinda biz yozma nasrda folklordan ijodiy foydalanishning an’anaviy usullaridan biri – xalq rivoyatlari matnini badiiy asar syujet-kompozitsion qurilishiga singdirib yuborish holatini ko‘ramiz.

O‘zbek adabiyotida, jumladan, roman janrining syujet kompozitsion qurilishida rivoyatlarning tutgan badiiy o‘rni masalasi A.Ergashev<sup>62</sup> tomonidan maxsus o‘rganilgan. SHoira Nodira bilan bog‘liq tarixiy rivoyatning bu asar badiiy qurilmasida bajargan etakchi poetik vazifasi roman strukturasi shakllantirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Yozuvchi “Ayollar mamlakati va saltanati” deganda benazir g‘azallariyu, pokiza qalbi bilan go‘zallikka oshno dillarni o‘ziga rom etgan Nodirabegimning ko‘ngil mulkini va uning vorislari bo‘lmish dilbar ayollarning sehrli hamda sirli saltanatini nazarda tutgandek bo‘lgan. Bizningcha, adib ma’lum ma’noda o‘zining ana shu badiiy niyatiga erisha olgan. Lekin bu o‘rinda bir narsani alohida qayd qilish joizki, yozuvchi asarda Nodira siymosini gavdalantirishda bir o‘q chiziq yo‘nalishida ish yuritmasdan, balki uni asarning bosh qahramoni sifatida tasvirlaganda edi, “buyuk Nodira siymosini o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantirib bergan”<sup>63</sup> bo‘lardi.

Shuningdek, adib o‘z badiiy niyatini amalga oshirishda ertak motivlaridan ham foydalangan. Bir podshoning bo‘yi etgan qizi turmushga chiqish uchun “Kimki, uch yolg‘ondan har biri ichida qirq yolg‘on topib kelsa, shunga tegaman!”

---

<sup>62</sup> Эргашев А. Ривоят ва унинг бадий асар сюжет-композицион қурилишидаги ўрни: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Самарканд, 1994. – 28 б.

<sup>63</sup> Омон Мухтор. Менинг ўз овозим бор (Ш.Дониёрова билан суҳбат) // Моҳият. –Тошкент, 2001. – 9 февраль.

– deb shart qo‘yadi. Bu ertak mazmunida qiz aytgan shartga kambag‘al – qashshoq bo‘lsa-da, aqlan etuk bo‘lgan bir etim yigit javob topa oladi va malikaga uylanadi.

O‘zbek xalq maishiy ertaklarini tadqiq etgan Q.Beknazarovning yozishicha, “Ertakda podsho qizining “qirq yolg‘on aytish”ni shart qilib qo‘yishi bizga hech g‘alati tuyulmaydi. Chunki to‘g‘ri gapni har qanday kishi ayta olsa, bu kabi yolg‘onni faqat dono va hozirjavob kishigina to‘qiy oladi»<sup>64</sup>. “Qirq yolg‘on”, “Uch yolg‘ondan qirq yolg‘on” kabi ertaklar syujeti nafaqat o‘zbek, balki boshqa turkiy xalqlar, shuningdek, jahon xalqlari folklorida ham ommalashganligi bilan xarakterlanadi. Ertakshunos J.Yusupovning aniqlashicha, “Qirq yolg‘on” ertagi Eniseydan Qrimgacha bo‘lgan ulkan hududda istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, uning “syujeti juda qadimiy, shubhasiz, islomdan burungi davrlar mahsulidir”<sup>65</sup>.

Bizning fikrimizcha, “Qirq yolg‘on” ertagi syujetining kelib chiqishi qadimgi mifologiya va marosimlar bilan bevosita bog‘liqligi to‘g‘risida qozoq olimi E.Tursunovning quyidagi mulohazasi ancha asosli: “Bu ertak syujeti yoshlarni sinab ko‘rish marosimi – qadimgi initsiatsiya shartlari bilan bog‘liqdir. Bu shartga ko‘ra, yolg‘on to‘qiy olish orqali o‘zining magik xususiyatga egaligini namoyish etgan o‘smir yigitlar safiga qabul qilingan. Ertakdagi “yolg‘on hikoya” ham aslida qadimiy sinov marosimida ishtirok etgan o‘smirlarning narigi dunyoga qilgan “ramziy safari” haqidagi mifologik hikoyasi asosida kelib chiqqan”<sup>66</sup>.

O‘zbek folklorida keng tarqalgan ana shu mashhur ertakdagi “yolg‘on aytish shartining qo‘yilishi” motividan ijodiy foydalangan adib mazkur ertak motivining o‘ziga xos badiiy talqini orqali “Odamzodga yolg‘onning nima keragi bor?” degan savolni qo‘yadi. Asar qahramoni Olim ham umri davomida ko‘pchilikka yolg‘on sevgi izhor qilgan, yolg‘ondakamiga va’dalar bergan, necha-necha qizlarni umidvor qilib qo‘ygan. Biroq, biror marta ham bu ishning oqibatini o‘ylab ko‘rmagan edi. Faqat doira yo‘l bo‘ylab yurar ekan, shu kuni unga duch kelgan ayollarning barchasi u hayotida uchratgan ayollarning aynan o‘zi ekani, ularning

---

<sup>64</sup> Бекназаров К. Ўзбек халқ маиший эртаклари: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент,; 1993. – Б.7-8.

<sup>65</sup> Юсупов Ж. Қайноқ қалб сурури. Сайланма. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006. – Б.81.

<sup>66</sup> Турсунов Е. Генезис казахской бытовой сказки. – Алматы, 1973. – С.92.

o'ziga nisbatan munosabatlari haqida o'ylab qoladi. SHundagina yolg'onning umri qisqaligi unga ayon bo'ladi.

Omon Muxtor asar qahramoni Olimni jar tubidagi g'ordan o'ziga noma'lum bo'lgan olamga olib kiradi. U erda marhum do'sti Ismoil va bir vaqtlar san'atkor bo'lgan Toji aka qiyofasining birlashishi natijasida ko'zga ko'ringan Toji Ismoil siymosi bilan muloqotda bo'ladi. Bu odam ba'zan Ismoildek muloyim muomala qilsa, gohida Toji aka kabi badjahl odamga aylanadi. Sirli, ma'nodor va jumboqli boqishlar Olimni o'yga toldiradi. O'zi izlab yurgan ayolni aytgach esa, bu erda ham o'ziga tanish bo'lgan ayollarning suratlarini ko'rib hayratlanadi. Olim ko'prik ustiga chiqqan paytda pastda, ya'ni suv bo'yida turgan o'ziga tanish bo'lgan ayollar qisqa vaqtda aylana yo'ldagi derazalar qarshisida paydo bo'lib qolganini ko'rib hayratlanadi. Bolaligi o'tgan bog' hovlida ana shu ayollar yana birin-ketin to'planishi yoki jar tubidagi tashkilot binosining devorida ularning suratlarini ko'rib ajablanadi. Asar oxirigacha bu ayollar Alvastimi, Farishtami ekanligini ajratolmay boshi qotadi. Hatto o'z xotini Hurriyatga ham shubha bilan qaraydi. SHu o'rinda "Ayollarda NAZOKAT qani?! Yigitlarda VALLOMATLIK qani?!" degan savolni ko'ndalang qo'yadi va bunga javob izlaydi, biroq tevarak-atrofga nechog'lik izlanib boqmasin, bunga javob topolmaydi. Kitobxon asarni o'qib tugatar ekan, sirli va sehrli voqealar zamirida aslida murakkab xilqat sanalmish ayol obrazi turganligini anglaydi.

## UMUMIY XULOSALAR

Bitiruv-malakaviy ishimizda yuqorida bayon qilingan mulohazalardan kelib chiqib shunday xulosalarga kelish mumkin:

1. XX asr o'zbek romanchiligida milliy ruh, qahramon va xarakterlar talqinining o'ziga xosligi xalqimizning milliy qadriyatlari hamda xalq og'zaki ijodi an'alarining aks etganligi bilan belgilanadi. Ayni shu xususiyat milliy romanchilikning yutuqlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Chunki milliy ruh muayyan etnosga xos milliy muhitda shakllanib, milliy madaniy muhitni tashkil etuvchi xalq urf-odatlarini, marosim va og'zaki adabiyot an'analari kabi badiiy-estetik hodisalarda o'z aksini topadi. Shunday ekan, milliy qahramon xarakterining shakllanishiga asos bo'lgan ma'naviy qadriyatlar tizimi mustaqillik davri o'zbek romanchiligida qay darajada aks etganligini o'rganmay turib, qahramon talqinidagi milliy ruh haqida muayyan ilmiy xulosalarga kelish mumkin emas.

2. Har bir davr adabiyoti xalqning milliy qadriyatlari silsilasiga o'z estetik ehtiyojlari, poetik imkoniyatlari va badiiy niyati talablari darajasida munosabat bildirishni taqozo etadi. Shu jihatdan olib qaraganda, yozma nasrdagi folklor elementlarining badiiy asardagi syujet – kompozitsion qurilishidagi o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan aniqlash adabiyotshunoslikning muhim estetik masalalaridan biri hisoblanadi. Badiiy asardagi qahramonlar ham tabiiylikni saqlab qolgan holda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan e'tiqodlarga ishonadi va bu inonchlar ijodkor badiiy mahorati tufayli asarga singdirib yuboriladi.

3. Mifologik qarashlarda o'z ifodasini topgan xalqona qadriyatlarni badiiy asarga singdirishda har bir adib o'ziga xos ijodiy usuldan foydalanadi. Xususan, Omon Muxtor asarlarida mifologizmning rang-barang ko'rinishlari bilan bir qatorda, xalq nasrining turli janrlariga oid folklorizmlarni ham uchratish mumkin. "Aflotun" romanida tasvirlangan bunday mifologik makon va zamon talqini (ya'ni "irreal voqealar") inson umri mohiyati haqida o'ylashga, fikr yuritishga va

hayotning mohiyatini anglab etishga yordam beradi. Yozuvchi xalq og‘zaki badiiy ijodining an‘analaridan ta’sirlanib, romanga olib kirgan “quduq” detali va “o‘zga olam”ga safar motivi milliy qahramon obrazining ma’naviy qiyofasi badiiy jihatdan to‘laqonli chiqishini ta’minlagan.

4. Yozma nasrda qo‘llanilgan tush motivi inson taxayyulining parvozi qanchalar serqatlam va mo‘jizakor ekanligini ko‘rsatish maqsadida foydalanilgan. Tush inson ruhiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan hissiy-emotsional hodisa bo‘lib, kishi shuurini band etgan orzu-istaklar, qo‘rquv va xavotirlanish kabi turli-tuman holatlar mifologik talqin bilan uyg‘unlashib, inson uyqudalik paytida uning ong osti olamida axborotlashadi va ana shu axborot muayyan ramzlar sifatida tushda namoyon bo‘ladi. Ana shu timsollashtirilgan axborotlar muayyan bir holatlarda formulaviy xarakter kasb etib, inson hayotida qachonlardir ro‘y beradigan karomatli tushlar tarzida voqealanadi. Yozuvchi ham o‘z badiiy niyatidan kelib chiqib asarda tasvirlanayotgan qahramon ruhiyatini tahlil qilish va izohlash maqsadida tushdan badiiy detal sifatida foydalanadi. Jumladan, “Aflotun” romanida bu badiiy detal Aflotun bilan Suqrotning tanishishiga sabab bo‘lgan holatni oydinlashtirish vositasi vazifasida kelgan.

5. Shoyim Bo‘taevning “Qo‘rg‘onlangan oy” romani xalq inonch-e‘tiqodlari va mifologik qarashlarining qadimiy namunalarini o‘ziga singdirganligi bilan alohida ajralib turadi. Asarda xalqimizning jonzotlar bilan bog‘liq mifologik qarashlari o‘z ifodasini topgan bo‘lib, burgut va oq bo‘kanlar bilan bog‘liq tasvirlar asar qahramonlari xarakterini yoritishning o‘ziga xos vositalaridan biri sifatida roman badiiy strukturasi muhim o‘rin tutadi.

6. “Qo‘rg‘onlangan oy” romanida keltirilgan afsonalarda diniy e‘tiqodlar bilan aloqador epik motivlarni ham kuzatamiz. Asarga singdirib yuborilgan Azroil to‘g‘risidagi afsona roman mazmunini yanada boyitib, qahramon xakteri talqinining ta’sirchanligi va ishonarliligini ta’minlagan. Asarda keltirilgan afsona qahramon yoki muallif tilidan emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirokchi – qahramon sifatida tasvirlangan Azroil nutqi orqali hikoya qilingan. Muallif bu

o‘rinda hikoyachi – qahramon nutqini qo‘llash bilan birga asar kompozitsiyasida muhim o‘rin tutgan kiritma epizoddan ham samarali foydalanadi.

7. Shoyim Bo‘taevning “Shox” deb nomlangan romanida mifologik obrazlarning o‘ziga xos ramziy bo‘yoqdorlik bilan tasvirlangan zamonaviy qiyofalarini kuzatish mumkin. Inson vujudida uni turli yo‘llarga burib turadigan ko‘rinmas ruh borligini va bu ruh uning qon-jonida makon tutganligini uqtirish uchun Odam Ato va Momo Havoni aldagan shayton haqidagi afsona asar syujetiga singdirilgan. Yozuvchi inson xarakterining salbiy tomonga o‘zgarishini inson vujudiga kirib olgan ana shu yovuz kuch faoliyati bilan bog‘laydi. Qolaversa, qonida hiylakor shaytoniy xislatlar jo‘sh urgan bugungi kun kishilarini ba‘zi tadbirkor, ishbilarmonlar timsolida talqin etgan adib milliy qahramon ruhiyati va shaxsiyatini badiiy tahlil qiladi.

8. Zamonaviy romanlarda afsona, mif va rivoyat motivlari, noreal (irreal) voqealar, xalq qarashlari, e‘tiqodiy inonch va udumlar bevosita muallif nutqi orqali ham asarga kiritilishi mumkin. Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” asaridagi Odam Ato va Momo Havo taqdiri to‘g‘risidagi afsona muallif nutqi orqali asarga singdirilib boriladi va bu voqeaning asar kompozitsiyasidagi o‘rni qahramonlar hayoti va taqdiriga qiyosan falsafiy mohiyat kasb etadi.

9. Ulug‘bek Hamdamning «Isyon va itoat» deb nomlangan romanida ham insoniy tuyg‘ular, ma‘naviy qashshoqlik, chuqur falsafiy mushohadalar va axloqiy tubanliklar to‘g‘risida bahs yuritadi. Asarda qahramon xarakterining o‘ziga xos ko‘rinishlari ijtimoiy muhitning real tasviri va asarning badiiy jihatdan yanada to‘laqonliligi uchun xizmat qilgan rivoyat janrining singdirilishi natijasida romanga olib kirilgan Momo Havo va Odam Ato qismatlari haqidagi hikoya vositasida ochib beriladi. Yozuvchi, odamzod eshitgani va ko‘rganiga hamisha ham amal qilavermaydi, doimo taqdiri azal yozmishiga qarshi isyon qilgisi keladi, degan mantiq Momo Havo va Odam Atodan qolgan meros ekanligini kitobxonga eslatib turish maqsadida, mifologik afsonalar mantig‘idan foydalanadi.



10. Omon Muxtor o‘zining “Ayollar mamlakati va saltanati” deb nomlangan romanida real hayotiy voqealar bilan insonning xayoliy olamidagi “noreal dunyo” manzaralarini uyg‘unlashtirishga harakat qilib, qahramon hayoti, tafakkuri va shaxsiyatiga turli tomondan yondoshadi. Bu asar matnida og‘zaki adabiyot an‘analari, ayniqsa, xalq ertaklari ruhi aks ettirilgan bo‘lib, unda tasvirlangan voqealar kitobxonni turli xil sirli voqealar sari etaklaydi. Asarda ayol deya atalmish sirli va sehrli xilqat mohiyati, uning o‘ziga xos fazilatlarini, jumboqlarga to‘la ichki dunyosi tahlil qilinadi.

## FOYDANALIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Ma`naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 49 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008. – 173 b.
3. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romani. – Toshkent: 1983. – 148 b.
4. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent: 2001. – 119 b.
5. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 2002. – 252 b.
6. Xrapchenko M.B. Tvorcheskaya individual`nost` pisatelya i razvitie literaturi. – M.: Sovetskiy pisatel`, 1972. – 399 b.
7. Xrapchenko M.B. Xudojestvennoe tvorchestvo. Deystvitel`nost`. Chelovek. – M.: Sovetskiy pisatel`, 1976. – 416 s.
8. Xrestomatiya po teorii literaturi / Sost. L.V. Os`makova. – M.: 1980. – 512 s.
9. Xmara V. Esteticheskiy ideal i tvorchestvo. – M.: Sovetskiy pisatel`, 1983. – S. 218.
10. Xudoyberganov N. Ishonch. – Toshkent, 1979. – 248 b.
11. Xudoyberganov N. Ham inson, ham tabiat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 63 b.
12. Xudoyberganov N. Mehru muhabbat yo'llarida. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 110 b.
13. Sharafiddinov O. Ma`naviy kamolot yo'llarida. – Toshkent: Ma`naviyat, 2001. – 224 b.
14. Sharafiddinov O. Iste`dod va e`tiqod. – Toshkent: Sharq, 2000. – 208 b.
15. Sharafiddinov O. Dovondagi o'yilar. – Toshkent: Ma`naviyat, 2004. – 581 b.

16. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. – 637 b.
17. Shukurov N. Uslublar va janrlar. – Toshkent: Adabiyot va san`at, 1973. – 170 b.
18. Chavda P. Roman segodnya / Sud`bi romana. Sbornik statey. – M.: Progress, 1975. – S. 72-79.
19. Eyxenbaum B.A. O proze. O poezii. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1986. – 476 s.
20. Eshonqulov J. Fol`klor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999. – 149 b.
21. Qodirov P. Amir Temur siymosi. – Toshkent: Sharq, 2007. – 245 b.
22. Qosimov U. Hozirgi o`zbek adabiyotida Tog`ay Murod ijodi. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. – 32 b.
23. Qur`oni karim. O`zbekcha izohli tarjima. – Toshkent: Cho`lpon, 1992. – 464 b.
24. Qo`shjonov M. Ijod mas`uliyati. – Toshkent: Adabiyot va san`at, 1981. – 351 b.
25. Qo`shjonov M. Hayot va qahramon. Adabiy maqolalar. – Toshkent: Adabiyot va san`at, 1979. – 366 b.
26. Qo`shjonov M. O`zbek romanchiligining rivojlanish bosqichlari va janr xususiyatlari / Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. – Toshkent: Fan, 1991. 1-jild. – B. 299-382.
27. Qo`shjonov M. Yozuvchi kamoloti / Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent: Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 21-32.
28. G`afurov I. Hayo – xaloskor. – Toshkent: Sharq, 2006. – 384 b.
29. G`afurov I. Mangu latofat. – Toshkent: Sharq, 2008. – 356 b.
30. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 198 b.
31. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – 196 b.
32. Abbas Said. Ko`chada qolgan odam: Roman. – Toshkent: Sharq, 2004. – 608 b.

33. Bulgakov M. Izbrannie. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1993. – S. 221-311.
34. Bo'taev Sh. Qo'rg'onlangan oy. – Toshkent: Sharq, 1995. – 192 b.
35. Bo'taev Sh. Shox. – Toshkent O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006. – 330 b.
36. Begmatov X. Devona Mashrab. – Toshkent: Sharq, 2005. – 271 b.
37. Dilmurod Asad. Mahmud Torobiy. – Toshkent: Sharq, 1998. – 300 b.
38. Dilmurod Asad. Fano dashtidagi qush: Roman // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1998. – №5. – B.118-181; – №6. – B.
39. Do'stmuhammad Xurshid. Bozor. Roman. – Toshkent: Sharq, 2000. – 192 b.
40. Omon Muxtor. Buxorolik bir yigit / Romanlar. – Toshkent: Yozuvchi, 1998 – 304 b.
41. Omon Muxtor. Aflotun: Roman, qissalar, hikoyalar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 191.b.
42. Omon Muxtor. Ayollar mamlakati va saltanati. – Toshkent: Sharq, 1997. – 238 b.
43. Omon Muxtor. Navoiy va rassom Abulxayr. – Toshkent: Sharq, – 2006. 128 b.
44. Muhammad Ali. Ulug' saltanat. – Toshkent: Sharq, 2006. – 335 b.
45. Muhammad Ali. Sarbadorlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1997. – 558 b.
46. To'xtamurod Rustam. Kapalaklar o'yini: Roman // Yoshlik. – Toshkent, 1995. –№ 4.
47. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: Sharq, 1994. – 268 b.
48. Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. – Toshkent: Sharq, 2001. – 206 b.

49. Xolmirzaev Sh. Dinazavr. Roman // Yoshlik. – Toshkent, 1996. –№ 2, 3.  
– B. 36 – 53.
50. Xolmirzaev Sh. Olabo'ji. Roman // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1996. –  
№ 1-4.
51. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Sharq, 2001. – 239 b.
52. Hamdam Ulug`bek. Muvozanat. – Toshkent: Sharq, 2007. – 271 b.
53. Hamdam Ulug`bek. Isyon va itoat. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. –  
439 b.
54. Hamdam Ulug`bek. Sabo va Samandar. – Toshkent: Muharrir, 2009. –  
309 b.
55. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. Roman. – Toshkent: Sharq, 1996. – 558
56. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. Roman. – Toshkent, 1993. –

## **MUNDARIJA:**

<b>Kirish.....</b>	.....
<b>I Bob. Fol'klorizmlarning roman badiiy to'qimasidagi o'rni.....</b>	.....
<b>II Bob. O'zbek romanchiligida milliy qadriyatlar talqini.....</b>	.....
<b>Umumiy xulosalar.....</b>	.....
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	.....